

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

YANGI NASHR

MA'RIFATPARVAR GENERAL QISMATI

Ismoil G'asprali, uning fojiali o'limi munosabati bilan "Tarjimon" gazetasida chop qilingan yirik ta'ziyanomada "General Jo'rabek tug'ma askar o'ldigi holda ilm va maorifni ham juda sevgan bir kishi edi. Alloh undan o'z rahmatini darig' tutmasin", deya hamdardlik bildirgan.



(Davomi 3-sahifada)

MUNOSABAT



BEHBUDIY BERGAN SABOQLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yaqinda qabul qilingan "Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorida tarix va taraqqiyot masalalariga e'tibor qaratilgan bejiz emas. Chunki Behbudiy adabiy merosida bu masalalar jiddiy muhokama qilingan. Aslida Mahmudxo'ja Behbudiy degan tabarruk nom tilga olinganida beixtiyor tarix tiriladi. Xususan, jadidlar harakati, ular ochgan maktablar, gazeta-jurnallar, teatr, adabiyot, ma'rifatparvarlarning ilm-fanga, dinga, dunyoga – umuman, bashariyat hayotining juda ko'p jabhalariga munosabatlari tasavvurimizda jonlanadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'z shaxsining ijtimoiylashgani, o'z nafsini yengib, omma manfaatini uchun kurash maydoniga otlangani, sayohatlarga chiqib olam kezgani, dunyoqarashining kengligi,

yangilikka tashnligi, o'zi mansub millat va tavallud topgan Vatan sha'ni yo'lida beqiyos xizmatlar qilgani, zamonasining ilg'or ziyolilarini izidan ergashirgani, ko'plab munosib shogirdlar tarbiyalagani, ayniqsa, o'z millatining dunyodagi boshqa biror qavmdan kam bo'lmashligini yurak-yurakdan istagan bilan boshqa jadidlar orasida oftobdek porlab ajralib turadi.

Behbudiyning "Taraqqiy" gazetasida bosilgan "Gazeta nadur" (1907-yil 11-son) nomli maqolasi bor. Vaqtli matbuot qadr-qiyamatini atroflicha tushuntirgan Behbudiy tarixdan misollar keltiradi. Dunyo ziyo ahli nashr qilayotgan gazeta va jurnallar borasida ma'lumotlar taqdim etadi. "Bu kun Misr, Istanbul, Hijoz, Quddus mamlakatlarida har xil gazetalar yuzdan ziyoda chiqar", Rusiyada chiqayotgan "har nav jarida va majallalarni adadi bir mingga yetib balki o'tadur". 1905-yildan keyingi ikki yil ichida Rusiya musulmonlari tomonidan o'ttizdan ortiq gazeta va jurnal chiqarilmogda ekan.

(Davomi 2-sahifada)

TAHLIL

Inson va jamiyat hayotida, xalqning ma'naviy dunyosini, ong-u tafakkurini yuksaltirishda teatr san'atining o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Shavkat MIRZIYOYEV



TEATR: U HOZIR HAM IBRATXONAMI?

XABARINGIZ BOR,

"Jadid" gazetasi avvalgi sonlaridan birida "Hamma o'qiyapti. O'qing!" sarlavhali maqola e'lon qilingan edi. Kitob va kitobxonlik tahliliga bag'ishlangan mazkur material ko'pchilik yurtodoshlarimiz, ziyolilarimiz orasida qizg'in munozara va munosabat uyg'otganidan ruhlangan holda, mavzuga uzviy bog'liq yana bir masalaga – milliy teatr san'atimizning bugungi holatiga chuqurroq razm solmoqqa urindik. Zero, kitob ham, teatr ham yagona maqsad – insonning ma'naviy kamoloti uchun xizmat qiladi.

Maqola nafaqat mutaxassislar, balki keng omma uchun mo'ljallangan sababli, teatr haqida kengroq ma'lumot berib o'tish joiz ko'rindi.

TEATR O'ZI NIMA?

Teatr – yunoncha "theatron", ya'ni "tomoshagoh" so'zidan olingan bo'lib, cheklangan joyda bir yoki bir

necha aktyorlar ijro etadigan sahna ko'rinishi orqali tomoshabinga fikr uzatuvchi mustaqil san'at turini anglatadi. Teatrning o'ziga xos ifoda vositasi aktyorning omma oldidagi o'yini jarayonida yuzaga keladigan sahnaviy voqeadir. Teatr tomoshasi asosida og'zaki yoki yozma dramaturgiya yotadi. Musiqa, tasviriy san'at, raqs, me'morlik dramaturgik materiallar bilan birga teatr hayotida ajralmas birlikni tashkil etadi. Teatr dramatik, opera, balet, qo'g'irchoq, pantomima, myuzikl singari turli shakl va ko'rinishlarga ega.

Barcha zamonlarda ham teatr jamoa mehnati bilan yuzaga kelgan. Sahnadagi har bir asar muallif, rejissyor, aktyor, baletmeyster, xoreograf, rassom, dirijyor, bastakor, butafor (sahna jihozlari ustasi), kostyumer, grimyor, sahna ishchilari, chiroq ustalari va boshqa ko'plab kasb egalari zahmatli mehnati bilan yuzaga chiqadi.

MANBALARDA YOZILISHICHA,

Yunoniston, Hindiston, Turonda miloddan avvalgi V asrdayoq teatr jamiyat hayotida muhim o'rin tutgan.

Yunonistonda ochiq maydonlarda faoliyat ko'rsatgan ilk antik teatrlar "amfiteatr" deb atalgan. Afina shahridagi Dionis teatri miloddan avvalgi V asrda qurilgan birinchi doimiy teatr hisoblanadi. Rimliklar yunon teatr arxitekturasini rivojlantirib, sahna orqa qismini bezash kabi yangi xususiyatlar qo'shganlar. Dastlabki teatr sahnalari vaqtinchalik bo'lgan esa, keyinchalik mustahkam va doimiy tuzilmalarga aylangan.

Antik davrda faqat ikki yo'nalishda – tragediya va komediya janrlarida tomosha ko'rsatgan teatr asarlari asosan tarixiy va mifologik syujetlar negizida yaratilgan va barcha rollar erkaklar tomonidan ijro etilgan. O'z davrining mashhur dramaturglari Esxil, Sofokl, Yevripid

yunon tragediyasining asoschisi hisoblansa, Aristofan – komediya qiroli sifatida e'tirof etilgan.

Hindistonda teatr sanskrit, xalq teatri shakllarida hamda "Mahobhorat" va "Ramayana" dostonlari bilan bog'liq holda rivojlangan, dramaturgiya va sahna san'ati haqida "Natyashastra" nomli risola yaratilgan. Xitoyda bundan taxminan ming yillar avval teatrlar diniy va saroy marosimlarida paydo bo'lib, o'ziga xos dramatik san'at shakliga aylangan.

MILLIY TEATR TARAQQIYOTI

haqida gapirganda, O'zbekiston hududida an'anaviy teatr juda qadim va boyligi, uning kurtaklari ibtidoiy jamoa davridayoq ov va boshqa mehnat jarayoni aks etgan taqildiy raqslar, jangovar va xalq o'yinlari, tabiat kuchlariga topinish natijasida yuzaga kelgan marosimlar shaklida namoyon bo'lganini ta'kidlash joiz.

(Davomi 4-5-sahifalarda)

ONAJONIM – TABIAT

Xalqimiz yerga birni berib, o'zni kutishga odatlangan. Saxovatli ona zamin tirik jonga rizq ulashish uchun o'zining bor kuch-quvvatini sarflaydi. Biz uning ne'matlaridan bahramand bo'lamiz-u, lekin ko'pincha yerni quvvatlantirish, ya'ni tuproq tarkibini mineral va mahalliy o'g'itlar bilan boyitish zarurligini unutib qo'yamiz. Aslida, eng bebaho boyligimiz bo'lgan yerni sevish, uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash har bir insonning burchi. Unga faqatgina tirikchilik va daromad manbai sifatida munosabatda bo'lish jaholatdan o'zga narsa emas. "Yerni boqsang, yer seni boqadi" degan maqol ham bejiz aytilmagan.

O'zbekiston Milliy universiteti Biologiya va ekologiya fakulteti tuproqshunoslik kafedrasining mudiri, biologiya fanlari doktori, professor Zafarjon Jabborov bilan shu mavzuda suhbatlashdik.

TUPROQ – TIRIK JON



– Ochiq'ini aytish kerak, barchamizning hayotimiz, tirikligimiz tuproq bilan chambarchas bog'liq bo'lsada, u haqda ko'p narsani bilmaymiz. Shuning uchun suhbatimiz avvalida tuproqshunoslik fanining mohiyati haqida qisqacha to'xtalib o'tsangiz.

– Gapingizda jon bor. O'zim guvoh bo'lganman, ayrimlar hatto, bu fanni geologiya yoki arxeologiya fanlari bilan adashtiradi. Holbuki, inson hayoti tuproqshunoslik ilmi bilan chambarchas bog'liq. Biologiya fanlari qatoriga kiradigan tuproqshunoslik tiriklik bilan bog'liq bo'lgan fan hisoblanadi.

Tuproq – bu tirik jondir. Bu gapim mubolag'a emas. O'zing tasavvur qiling, bir gramm sog'lom tuproq tarkibida

25 milliard adadgacha mikroorganizmlar yashaydi! Xo'sh, bu mo'jiza emasmi? Ana shu va mitti mavjudotlar tuproqqa jon bag'ishlab, uning bag'ida turfa nabotot namunalari barq urib o'sishiga yordam beradi. Tuproq yer yuzidagi hayot bardavomligini ta'minlovchi asosiy unsurdir. Muqaddas kitoblarda insonning o'zi ham tuproqdan yaratilgani aytiladi. Zamonaviy ilm-fan ham buni allaqachon isbotlagan.

Ushbu fan tuproqning paydo bo'lishi, shakllanishi, o'zgarishi, o'ziga xos xususiyatlari hamda uning bag'ida o'simliklar yetishtirish singari xilma-xil masalalarni o'rganadi.

– Ma'lumki, 2025-yil yurtimizda "Atrof-muhitni asrash va "yashil"

iqtidosiyot yili" deb e'lon qilindi. O'ylashimcha, bu hol tuproqshunoslik sohasida faoliyat ko'rsatayotgan olim va mutaxassislariga ham alohida mas'uliyat yuklaydi. Chunki atrof-muhitning asosini, avvalo, tuproq tashkil qilishi sir emas.

– Prezidentimizning mazkur tashabbusi tuproqshunoslik sohasi vakillarini ham quvontirdi. Chindan ham, atrof-muhitni asrash, avvalo, tuproqni muhofaza qilishdan boshlanadi. Demak, joriy yilda bizning kafedramizda ishlar har qachongidan tig'iz bo'ladi. Hamkasblarimiz bilan birgalikda bu borada bir qator aniq maqsadlarni belgilab olganmiz. Ayni paytda Innovatsion rivojlanish agentligi granti asosida Orol dengizining qurigan hududidagi tuproq va gruntlarning sho'rlanganlik holatini o'rganish, ularning fizik, kimyoviy va biologik xossalari ko'ra o'simliklar ekish hududlarini guruhlashning ilmiy asosini yaratish bo'yicha uch yillik fundamental loyiha ustida ish olib boryapmiz. Shu kunlarda Orol dengizining qurigan qismida qanday o'simlikni qaysi vaqtda ekish zarurligini o'rganmoqdamiz. Shu orqali u yerdagi tuproq xossalari tadqiq etish orqali yashil hududlarni kengaytirishga o'z hissamizni qo'shmoqchimiz.

Ma'lumki, Orol dengizining qurishi mintaqamizdagi eng yirik ekologik muammo hisoblanadi.

(Davomi 3-sahifada)

TARIX VA TAQDIR

JADIDLIK MILLIY



Til millatning eng katta boyligi, ma'naviy mulkidir. U millatni millat, xalqni xalq qilib turuvchi kuch hamdir. O'zbek xalqi o'z tilini saqlab qolish maqsadida butun tarixi ichra juda ko'p marta bosqinchilar tilini qabul qilmaslik uchun kurashgan va jonini fido qilgan. XX asr boshlarida ham bu muammo bo'lgan va Turkiston jadidlari turkiy tilni yot so'zlardan asrash, uning sofligini saqlash, nufuzini oshirishga harakat qilganlar. Davriy matbuotda til-imlo masalalarini doimiy yoritib borganlar. Bunda "Sadoyi Turkiston", "Mehnatkashlar tovushi", "Ishtirokiyun", "Zarafshon", "Turkiston" gazetalari, "Oyina", "Maorif va o'qitg'uchi" jurnallari asosiy minbar vazifasini bajargan.

Maqolalar va xabarlarida turkiy (o'zbek) tilni begona so'zlardan tozalash, nufuzini ko'tarish, o'rta turk tilini yaratish borasidagi bahslar, yangi imloni joriy qilish, bosqinchi hukumatning ikkiyuzlamachi til siyosatiga munosabat, til qoidalarini joriy qilish masalalari o'rin olgan.

Jadidlarning nufuzli nashri bo'lgan "Sadoyi Turkiston" gazetasining muxbiri Abdurafiq Muzaffarzoda o'zining "Til ham din" maqolasida turkiy tilni rivojlantirish, uni asrash, imlo, lahja va sheva masalasi, maktablarda ona tilini o'qitishning dolzarbligini asoslab bergan. U tilshunos va adabiyotshunoslar til haqida maqolalar va risolalar chop etishi, maktab o'qituvchilari maktabda til darslarini o'qitish uchun darsliklar yozishi kerakligini ta'kidlagan.

(Davomi 7-sahifada)



Boshlanishi 1-sahifada.

Ayni maqolada Behbudiy sarlavhaga qo'yg'an savolga javob o'laroq: "Shundayki, jarida o'ynaydi jahonnomadur. Gazet o'quyidur g'arbi dunyodagi barcha xabar va hodisalarni, har toifaning taraqqiy va tanazzuli, uning sabab va illatini o'z din va millatiga qaysi toifa do'st, qaysi toifa dushmanligini bilur", deb yozadi. Tabiiyki, bunda gazetani kim chiqarayotgani va jamoaning maslagi ham muhim.

Behbudiy o'z maqolalarida "taraqqiyparvarlar g'ofil bo'lmasun" degan gapni ko'p takrorlaydi. "Qulil haqqa valav kana murran" – "Achchiq bo'lsa ham haqiqatni aytgin". Ha, haqiqat achchiq. Hikmatdan murod – tarixga, zamonga, taraqqiyotga tegishli achchiq haqiqatni o'z o'rnini va o'z vaqtida aytish lozim.

Mahmudxo'ja Behbudiyning sharq va g'arb olamidagi allomalar tomonidan yuzaga chiqarilgan, kashf etilgan, ixtiro qilingan narsalar to'g'risida "Tarixi ixtiro'i bashar – odamlarning chiqargon nimarsalari" nomli ma'lumotlarga boy asari bor. To'g'risi, bunday ma'lumotlarni yozish uchun ulkan tarix kitoblarini o'qish lozim. Behbudiy asari tarkibida o'zi foydalangan manbalarni, ya'ni "Tarixi umumiy", "Tarixi madaniyat", "Madaniyat islomiya", "Koinot", "Tarix va jug'rofiya lug'ati", "Tarixi tamaddun" kabi bir qator kitob va risolalarni nomma-nom sanaydi. "Ko'rganlarimdan ko'chirganlarim" degan muhtasham surayotgan bugungi kunda Behbudiy ijodi, bayon usuli ayni jihati bilan ham grafomanlarga ibrat, albatta. Behbudiyning niyati xolis, maqsadi aniq: "Tarixdan bexabar ba'zi kishilar va yoinki dushmanlar musulmonlarni avvaldan oxirgacha nodon, vahshiy ko'rsaturlar. Musulmonlar dunyoga hech nima ixtiro qilmadi, derlarki, ul g'alatlar va har bir sharaf va hunarmandlikni, bu kungi faranglarga isnod bermoq ham to'g'ri emas. Chunki dunyodan o'tganlar o'z navbatlarida ishlab, hunar ko'rsatib o'tdi va ushbu kungi ixtirolar uchun asbob hozirlab qo'ydi va hozir faranglar navbatidur". Oqqan daryolar oqishini yaxshi bilgan Behbudiy charxi kajraftorning bir evrilishidan, taraqqiyotda zamin ahlini ergashtirish navbati bizga kelishidan umid etadi. Adib yozadi: "Bir zamon kelurki, navbat boshqalarga tegar, bul dunyoning odatidur". Taraqqiyot rubi maskunung turli qit'alariga ko'chib turishi tabiiydir. Jadidlarning dunyo va taraqqiy zamon bilan hamnafas bo'lish degan g'oyasi zimnida benihoya ulkan g'oya mujassam. Behbudiy bu yorug' olamda bo'layotgan voqea-hodisalardan, yangiliklardan, kashfiyotlardan, nashr bo'layotgan kitoblardan boxabarlikni tashviq qiladi. Buning uchun esa o'z zamondoshlarini ma'rifatga, ilm olishga, tillarni o'rganishga, ayniqsa, dunyoning to'rt tarafidan beto'xtov kelib turgan gazeta va jurnallarni o'qishga chaqiradi. Zamon bilan hamqadam bo'lish, mutaraqqiy dunyo ahli bilan hamnafas

BEHBUDIY BERGAN

SABOQLAR



bo'lish yo'lida Behbudiy ulamo bilan yoshlarni tayanch deb biladi. Yoshlarni o'qitish kerakligini takror va takror ta'kidlaydi. Tarixga murojaat qilar ekan, to'g'risi, Behbudiy yozgan asarlari tarkibida kelgan dunyoga mashhur allomalar, shaxsiyatlarining nomlari va ular qoldirgan meros sanog'ining o'ziyoq odamni hayratga soladi. Behbudiy o'z maqola va risolalarida sanagan kitoblarni o'qib, mag'zini chaqib, shimmasini siz-u bizga taqdim etadi. Biz hali hanuz Behbudiy taqdim etgan maqolalar, ayrim muhim asarlarni ham oxirgacha o'qiy olganimiz, tabdil qila olganimiz yo'q. Bir joyda deppinish, birovlarining tayyor oshlariga bakovullik, o'rtakashlik, dallolik kuchli bizning "ilm"da. Yangilik, izlanish o'rniga tayyor tabdillardan maqolalar, risolalar, monografiyalar yasash jarayoni shiddatli bizda. Holbuki, Behbudiyning inglash uchun ular o'qigan, biz uchun ma'lumot o'rinda taqdim etgan xorijiy tilda yozilgan kitoblarni tarjima qilib, o'qish lozim.

Behbudiyning olam hodisalariga munosabati zamirida o'rnak bor. Uning do'st bilan dushmanni ajrata bilish tamizi orasta. O'z qarashlarining isboti uchun keltirgan dalillari kuchli. Behbudiyning mezon – tarozisi toshlarining ichi kovak emas. Shuning uchun ham uning maqolalari tarkibida o'nlab sharq allomalarining ismlari, asarlarining nomlari keladi. Ayni chog'da dunyoga taniqli Arastu, Aflotun, Suqrot singari faylasufalar esga olinadi. Rus tilini mukammal bilgani uchun ruscha kitoblarga, rus olimlari fikrlariga murojaat qiladi. Behbudiy hazratning dunyo tamadduni, dunyo olimlari va dunyoga mashhur kitoblar bilan tillashuvida, ogohliligida, hayqirig'ida juda

katta dard, juda katta orzu va ma'no bor. Bugun tarjimayiholshunoslik mashmashalaridan biroz balandlab, Mahmudxo'ja Behbudiy hazrat yozganlarini sinchiklab, hijjalab, so'zma-so'z, satrma-satr o'qish, uqish va u zoti sharifning qalbini butkul anglash zamoni keldi. Buning uchun esa Prezident qarorida ta'kidlanganidek, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Tanlangan asarlar" to'plamini ommaviy nashr qilish zarur. "Isloli tahsil" maqolasida Behbudiy "umumdiniya va adabiyoti arabiyani muntazam tahsil qilmoqqa va ul taraf usul tahsilini bilib kelmak uchun Misrg'a talaba yuborayluk", deb yozadi. Ikkinchidan, zamon imlari, iqtisod fani, siyosat yo'rig'i, adabiyot, san'at va "hikmatii jadididan xabardor bo'lmoq uchun" ilg'or maktablarga, xususan "akmal tahsilari uchun Peterburg'dagi dorulfunun va makotibi oliyog'a talaba yuborayluk", deya tavsiyalar beradi. Shunda tamaddunga erishish, dunyo ahliga o'xshab, taraqqiy qilish mumkin. Shunda o'z millatning orasidan hokimlar, tabiilar, olimlar yetishib chiqadi. Shunda yuksalish sarbaland bo'ladi; "ajrabiylarg'a asir va xizmatkor bo'lmoqdin o'zimizni" saqlashimiz imkoniga ega bo'lamiz (Behbudiy "Tujjor". 1907-yil 10-sun).

Behbudiy jadidlar rahnamosi sifatida millatni yetaklovchi oydin fikrli ziyolilar oldiga ana shunday juda ulkan maqsadli rejalarini ko'ndalang qo'yadi. Ba'zan bu fikrlar kurashi kechayotgan maydonda yolg'iz ekanini ham sezadi, atrofidagi taraqqiyparvarlarni o'zaro og'ziolchilik, parokandalik va nifoqqa barham berishga chorlaydi; ularni birlikka, birdamlik va hushyorlikka da'vat etadi.

Behbudiy "taraqqiyot" konsepsiyasining negizini ilm tashkil etadi. Har qanday millat dunyoda o'z o'rnini ilm bilan topadi. "Padarkush" dramasiyosida asosida ham shu tezis turadi. Dramadagi ziyoli: "Dunyog'a taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi. Asir va zabun bo'lganlarda beilmlikdan", deydi.

Tarix masalasini muhokama qilar ekan, Behbudiy taraqqiyot tushunchasini unga yonma-yon qo'yadi. "Turkiston tarixi kerak" maqolasida yozadi: "Tarix ko'b ahmiyatli va foydali bir narsadur. Tarixning foydalaridan ba'zisi ushburdurki: bir millat na tariqada, qiyosiy yo'li ila taraqqiy etganin o'qub ibrat olmak yoki bir millatning na sabablardan tanazzul etib, oxiri inqiroz bo'lub ketganin o'qub, mundan ham istifoda etmak mumkindur. Shuning uchun bizning o'z shevamizda Turkistonda o'tgan bobolarimizning mavhi, siyosiy ahvoliyg'a doir "Turkiston tarixi" bor bo'lganda, uni ko'z oldimizda qo'yub, burung'i qahramon bobolarimizning na yo'li ila taraqqiy va madaniyat davrig'a kirib va nima sababdan oxir inqiroz bo'lub ketganlarini o'qub, bilub, xiylu ibrat olar eduk". Xo'sh, Turkistonning bunday shonli, milliy tarixini kim yozadi? Behbudiy yosh muarrix "muhtaram Ahmad Zaki Validiy afandining qalamidan umid" etadi ("Oyina". 1914-yil, 38-sun).

Behbudiy 23 yoshli Zaki Validiyning "Turkiston tarixi"ni yozishiga ishonch bildiradi. O'sha zamondagi bordi-keldilar, aloqalar, robitalar naqadar kuchli bo'lganini tasavvur qilish mumkin. Turkiston tarixini yozadigan yosh muarrix nomzodini Behbudiy tavsiya qilmoqda. Bugun biroz mulohaza qilaylik. Biz turkiy dunyodagi

yoshi 25 ga yetmagan qaysi olimni taniymiz? Uning biror kitobidan xabarimiz bormi? Holbuki, zamon globallasgan, muloqot imkoniyatlari cheksiz. Biroq biz qardoshlar bir-birimizni yaxshi tanimaymiz, to'g'risi. Mabodo biror xalqaro anjumanga xorijdan biror olim, mutaxassis kelib qolsa, uni boshqa hamkasblar bilan tanishuvdan ihtotalab yurishlarini ko'rib, eshitib ilm ahlining hasadi – bu ulkan milliy-mahalliy fojia ekaniga iqror bo'ldim.

Behbudiy "Muhtaram samarqandiyilarg'a xolisona arz" maqolasini shunday boshlaydi. "Ahlil xabarning ma'lumidurkim, eski hukumat zamonida har nimarsa amr va buyruq ila bo'lur edi. Xaloyiqning diniy va milliy ishlarini isloli va rivoji to'g'risida qilaturg'on harakatlarga yo'l berilmas edi. Hech nimarsa hukumatdin bejavob va iznsiz qilina olmas edi. Hozirda bo'lsa, Fudoyi taolo bizg'a hurriyat berdi. Diniy va milliy isloliyat va taraqqiyimiz uchun harakat va sa'y etmoqg'a yo'l ochuqdir..." (Behbudiy. "Hurriyat". 1917-yil 13-may).

Behbudiyning anglamoq uchun unga, uning dardiga, g'amiga, jahdiga, jonfidoligiga, hissiyotiga yaqinroq bormoq kerak. Behbudiy bilan oradagi masofani qisqartirish lozim. Aks holda Behbudiy hazratlari bizga ko'nglini ochmaydi. Behbudiyning inglash uchun chin millatparvar, chin vatanparvar bo'lmoq kerak. Mansabparast, molparast, shuhratparast, minbarparast, unvonparast, obro'parast kimsalar bilan Behbudiyning g'oyasi, fikri, qarashi aslo birlashmaydi. Ko'ngli ochiq odamning yo'li ochiq bo'ladi. Shon-shuhrat, mol-dunyo, mansab-martaba, mukofot kerakmi, marhamat, ular xolis niyatli odamga kutilganidan tomonidan keladi. Ular so'rab, talashib, tilanib olinmaydi. Qozoniladi. Buning uchun mehnat, zahmat, xizmat lozim. Xolisona, Alloh yo'lida ezgu ishlarga bosh-qosh bo'lmoq, istsor lozim.

Hayhot, Behbudiyning anglamaganlar va anglashni xohlamaganlar, o'qimaganlar va o'qishni istamaganlar hali bugun ham mug'ombirona miyig'ida kulub qo'yishadi; ezgu g'oyalarni "avvaldan qolgan asotirlar" deb atashadi. Holbuki, bugun iymon va vijdonga ko'zgu tutadigan zamondir. Holbuki, bugun Behbudiyning anglaydigan va uning borlig'ini har kimga anglatadigan zamondir. Bugun ilm zamoni, Behbudiy xohlagan hurriyat zamoni. Bu kunlarning qadriga yetmoq kerak. Dunyo ahli bilan, mutaraqqiy millatlar bilan do'st, inoq, hamkor, hamfikr bo'lmoq kerak. Biz ham aql xazinalarini ishlatadigan zamon muhitida istiqomat qilmoqdamiz. Biz bugun ham qaddimizni tik tutmay, egilib-bukilib kun ko'rar ekanimiz, olam va bashariyat oldida kuligoga qolamiz. Biz bugun o'z hurligimizni, o'z erkimizni, o'z huquqimizni, o'zligimiz va kimligimizni teran anglamas ekanimiz, dunyo ahli oldida masxara bo'lamiz. Zotan, ikki dunyo saodatini qo'lga kiritmoq uchun inson o'laroq, komil inson o'laroq yashamoq kerak. Behbudiy hazratlari shunday saboq beradi.

Bahodir KARIM,
professor

O'ZBEK TILIM - O'Z TILIM

BU - MENING VATANIM!



Viktor PAK:

– Bir tadbirda hurmatli bir inson menga "Viktor Nikolayevich, sizga rahmat, bizni davlatimizni hurmat qilasisiz" dedi. Biroz og'ir botdi. "Shoshmay turing, aka, nega siz "bizni" deypasiz? Men O'zbekiston fuqarosiman, bu mening davlatim!" dedim. Quloqqa yomon eshitildi-da. Xuddi men begona-yu boshqa davlatdan kelib qolganiday...

O'zbekiston – mening Vatanim, Bekobodda tug'ilganman. Tuproq yo'llarda, ko'cha changitib katta bo'ldim.

Do'stlarimning deyarli hammasi – o'zbeklar. Ikki oylik chaqaloqligimda koreys ota-onam boshqa-boshqa turmush qurib, meni tashlab ketishgan. Buvim nima berib boqishni bilmay qolganida, o'zbek onam – To'xtaxon aya chiqqilab yotgan men go'dakni chaqalog'iga qo'shib emizib boqqan. Keyinchalik ham To'xtaxon onam tandirga bug'doy unidan yopgan kulchanoqlarni yeb ulg'aydim. Qanday qilib o'zbek tilini bilmasligim mumkin edi axir? Butun hayotim shu yerda o'tdi. O'zbek onadan sut emdim, o'zbek urf-odatlarini ichida yashadim. Eng yaqin og'aynilarim o'zbek yigitlari. Bildim, negadir koreys markaziga rahbar bo'lib ishlasam-da, ko'proq o'zbeklarga yaqinroqman. Mahallada ko'rib o'sganimday katta oilamni bitta uyga jamlaganman. O'zbeklarning bir dasturxon atrofida

Xalqimizda "sut bilan kirgan jon bilan chiqadi" degan naql bor. O'zbekiston Respublikasi koreyslar madaniyati markazlari assotsiatsiyasi raisi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Viktor Pak bilan suhbatlashgan odam uning koreys millatiga mansub ekaniga shubha qiladi. Sababi, Viktor aka (uni ko'pchilik shunday ataydigan) qoniga o'zbek tili ona suti bilan singgan. U O'zbekistonsiz o'zini, o'zbeklarsiz hayotini, o'zbek tilisiz muloqotni tasavvur eta olmaydi. Shu yerni yerim deb, shu elni elim deb, shu tilni tilim deb yashaydi.

o'tirishlariga havas qilar edim. Hozir uyimda xuddi shunday hayotni joriy qilganman. Har hafta o'z qo'llarim bilan osh pishiraman. Ba'zilar "Viktor aka, qanday qilib ikki kelinni bir uyda olib o'tiribsiz?" deb so'rashadi. Ularga shunday deymen: "Men Oliy Majlis deputatiman, uyda ham deputatlik qildim. Birinchi kelinimni tushirib kelishdan oldin oilamiz uchun qonun ishlab chiqdim. Bu qonun uch bobdan iborat: 1. Bu uyda adasi har doim haq! haqqi, o'g'li Mamasoli bilan qaynoq sutga botirib kallaqand qo'shib yegan kulchalarimizning lazatti deb qaytdim. 2. Mabodo ada nohaq bo'lsa, birinchi bob o'qilsin! 3. Bu qonun muhokama qilinmaydi!"

Bu, albatta, hazilnamo gap. Lekin ikki o'g'il, ikki kelin, besh nabiraman bir uyda ahil-inoq yashayotganimiz rost. Janjal, kelishmovchilik yo'q. Axir shunday hayotni deb, "seni olib qolamiz" deysinganiga ko'nmay, harbiy xizmatdan O'zbekistonimga qaytganman. Bo'lmasa meni kutib o'tirgan ota-onam, opa-ukalarim ham yo'q emas edi. To'xtaxon onam yopib yedirgan bug'doy nonning ta'mini hech nimaga alisholmadim. Shu non haqqi, o'g'li Mamasoli bilan qaynoq sutga botirib kallaqand qo'shib yegan kulchalarimizning lazatti deb qaytdim.

Namanganda zavodda ishlagan kezarim o'zbek onamni ko'rganim keldim. Uning eri urush ko'rgan, juda yaxshi inson edi. Onam bilan so'rashib turgan joyimizda etigining qo'njidan pichog'ini chiqarib yugurib ketyapti. Oldidan to'sib chiqdim. Bildimki, o'ziikki

boshgina qo'yining birini so'ymoqchi. "Ada-cha, ada, besh kilo go'sht olib kelganman, yomon bo'lib qoladi", deb zo'rg'a to'xtatdim. O'rtaholigina, lekin ana shunday bag'rikeng odamlar edi ular. Axir shunday insonlar bor joyda o'zbek tilini o'rganmay bo'ladimi? Qanday qilib men ular bilan koreyscha yo ruscha gaplashaman? Axir bu odamlar meniki, ularning tili mening ham tili-da. Toki, O'zbekistonda tug'olsang, yashasang, o'qisang, oilali bo'lsang, bu el tilini bilishing shart! Axir bu bizning yurtimiz. Mana shu mamlakatning fuqaroligini olib, Vatanim degan har qanday millat vakili uning tilini o'rganishi kerak, meningcha.

Hayotim haqida "Taqdir ufqlari" nomli kitob yozdim. Albatta, adabiy tilda yozolmasligim mumkin deb, o'zbekchaga badiiy tarjima qildirdim. Kitob ikki marta nashr etildi. Koreys yo rus tilida emas, nega aynan o'zbekchada chop ettirganimning sababi, bu kitobni o'zbeklar o'qisin deydim. Qishloqdoshlarim qo'lga yetib borishini, o'zbek do'stlarimga taqdim qilishni xohladim. Kitob suyetlari asosida "Qizg'aldoqlar qachon ochiladi?" nomli badiiy film ham olindi. "Taqdir ufqlari" mening o'z yurtimga keldim. Uning eri urush ko'rgan, juda arzimlasiga armug'onim bo'ldi. Ko'nglida esa, hech qachon tuga-maydigan mehr bor, muhabbat bor.

Muhayyo PIRNAFASOVA
yozib oldi.

MUJDA

Qadim zamonlardan ilm va ma'rifat o'choqlaridan biri bo'lib kelayotgan ona zaminimizda vujudga kelgan va keng yoyilgan turli ta'limotlar, jumladan, tasavvuf tariqatlarini keng va chuqur o'rganish yosh avlodni ajdodlarimizdan qolgan boy ilmiy va ma'naviy meros bilan tanishtirishga yordam bersa, bu boradagi tadqiqotlar natijasi o'laroq yaratilgan kitoblarning xorijiy tillarga tarjima qilinib, nashr etilishi ushbu buyuk merosni jahon bo'ylab targ'ib qilishga hissa bo'lib qo'shiladi.

AJDODLAR MEROSINING XORIJDAGI TARG'IBOTI


Qadimiy Movarounnahr zamini islom tasavvufi beshiklaridan biri hisoblanadi. VIII–XI asrlarda islom olamining boshqa yirik markazlari qatori Markaziy Osiyoda ham so'fiylik harakati ildiz o'tib, tasavvufning nazariy va amaliy asoslari shakllandi, XII asrdan boshlab esa bu o'lkada keyinchalik butun islom dunyosida dong taratgan yassaviya, xojagon-naqshbandiya, kubraviya, ishqiya kabi so'fiylik tariqatlari vujudga keldi. Bular orasida islom olamida birinchilardan bo'lib vujudga kelgan eng qadimiy va ko'p mamlakatlarga tarqalgan eng nufuzli tariqatlardan biri sifatida tanilgan xojagon-naqshbandiya tariqati o'zining tarkidunyochilikni qoralovchi, insoniylik, vatanparvarlik va mehnatsevarlikni targ'ib etuvchi ilg'or ta'limoti bilan ajralib turadi.

Tan olish lozimki, shu paytga qadar jahon sharqshunosligida xojagon-naqshbandiya tariqati tarixi va ta'limotini o'rganish bo'yicha anchagina ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, hanzugacha uning vujudga kelishi va tarqalishi tarixi, ta'limoti asoslari, mashhur namoyandalari hayoti va faoliyati borasida ilmiy asoslangan aniq va yagona qarash shakllangan, deb bo'lmaydi. Jumladan, xojagon-naqshbandiya ta'limoti va uning islom olamidagi nufuziga har xil yondashgan turli mamlakatlarda tadqiqotchilari bu borada turli xulosalarga kelishgan. Yurtimizda esa, garchi xojagon-naqshbandiya tariqati tarixining alohida olingan davrlari, shuningdek, ba'zi namoyandalari, ma-

salan, tariqatning ilk yetti piri hayoti va faoliyati to'g'risida muayyan ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, haligacha ushbu tariqat tarixi, ta'limoti va vakillari kompleks va tizimli tadqiqotlar obyektiga aylantirilmagan.

Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi, "Naqshbandiya" jurnalining bosh muharriri o'rinbosari, tarix fanlari doktori, sharqshunos-mambashunos, tasavvufshunos olim Komiljon Rahimovning ushbu muhim mavzuda yaratilgan "Xojagon-naqshbandiya tariqati va yetti piri" monografiyasi (Toshkent: "O'zbekiston", 2020) xalqimiz ma'naviyati va dunyoqarashining shakllanishida muhim o'rin tutgan mazkur ta'limotni ilmiy asosda o'rganish ishiga muhim hissa bo'lib qo'shilgani shubhasiz.

Qisqa vaqt ichida O'zbekiston ilmiy doiralari, jumladan tarix va tasavvufshunoslik sohalari tadqiqotchilari orasida shuhrat qozonib ulgurigan ushbu tadqiqot xorijiy yurtlarda ham tanilga boshladi. Jumladan, mazkur monografiya 2020-yilda rus tiliga tarjima qilinib, Rossiya (Рахимов К. Тарикат хваджаган-накшбандия и сем пиров / – Казан: ИД "Меддок", 2020. – 180 с.) chop etildi. 2021-yili esa ushbu kitobning turk tiliga qilingan tarjimasi Turkiyada (Kamilcan Rahimov. Haccagan-Nakshibendiyye Tariqati ve Yedi Pir. – Ankara: Fecr Yayinlari, 2021.) bosmadan chiqdi.



Yaqinda mazkur kitobga oid yana bir xushxabar keldi – "Xojagon-naqshbandiya tariqati va yetti piri" monografiyasi 2024-yili Eronning Tehron shahridagi "Mavlo" nashriyotida fors tilida nashr etildi.

E'tiborlisi shundaki, shu paytga qadar eronlik tarixchi, adabiyotshunos, dinshunos va tasavvufshunos olimlar tomonidan xojagon-naqshbandiya tariqatini o'rganish borasida muayyan ishlar qilingan bo'lsa-da, bu yurtda O'rta Osiyodan yetishib chiqqan mazkur tariqat tarixi, ta'limoti va namoyandalari to'g'risida tizimli va qamrovli tadqiqot amalga oshirilmagan edi. Shunga ko'ra, o'zbek tasavvufshunos asarining forscha nashri Eron va Afg'oniston kabi mamlakatlarda xojagon-naqshbandiya tariqatini o'rganish ishida muhim va foydali manba bo'lib xizmat qilishi aniq. Bundan tashqari, Eron, Afg'oniston, Pokiston va boshqa mamlakatlarda yashovchi forsiyzabon o'quvchilar va tadqiqotchilarga mo'ljallangan bu tarjima tez orada o'z muxlislarini topib, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy ilmiy va ma'naviy merosning xorijiy mamlakatlardagi targ'iboti yo'lida yana bir muhim qadam bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Ilmiy-ma'naviy merosimizni o'rganish va targ'ib etish ishiga katta hissa qo'shib kelayotgan yosh mambashunos olim, mohir tarjimon va jamoatchilik faoli bo'lish Komiljon Rahimovni tabriklab, uning ajdodlarimiz merosini o'rganish va keng targ'ib etish sohasidagi faoliyatiga muvaffaqiyatlar tilab qolamiz.



TUPROQ – TIRIK JON

Boshlanishi 1-sahifada.

Uning o'rnida paydo bo'lgan 5,2 million gektar sho'rxok maydonning 3 million gektardan ortiqrog'i O'zbekistonga tegishli. Lekin bu joylar ayrimlar o'ylaganidek g'iyoh bitmas "o'lik hudud" emas. So'nggi yillarda "Yashil makon" umummilliy loyihasi asosida amalga oshirilayotgan ishlar shundan dalolat. Biz ana shu yerlarning tuproq xossalari ilmiy asosda atroflicha o'rganib, o'simliklar ekib ko'kارتirish mumkin bo'lgan barcha hududlarni belgilab olishimiz lozim.

Shu bilan birga, kafedramizning olim ayollari Toshkent shahridagi maishiy chiqindixonalar atrofining ekologik holatni o'rganish va bu hududlarning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish ustida ham tadqiqot olib borishmoqda. Qolaversa, biz organik chiqindilardan laboratoriya sharoitida o'g'it, ya'ni biokomir olish va uni sho'rlangan hamda kimyoviy ifloslangan yerlarda qo'llash orqali tuproq tarkibini yaxshilash borasida ham maqsadli tadqiqotlarni yo'lga qo'yganmiz.

– **So'nggi vaqtlarda xazonni yoqishdan ko'ra, o'g'it sifatida foydalanish afzalroq ekan haqida ko'p gapirilsa-da, lekin hammayam bunga amal qilmayapti. Xo'sh, mutaxassis sifatida bu holga qanday qaraysiz?**

– Tuproqshunos olim sifatida aytishim mumkinki, xazonga o't qo'yish – yerga nisbatan o'ta shafqatsizlikdir. Bu holat ekologiyaga katta zarar keltirishdan tashqari, tuproqning muayyan qismini butunlay kuydirib, jonsiz massaga aylantiradi. Uning o'zini qayta tiklab olish uchun yillar talab etiladi. Odamlarga rizq-ro'z berayotgan saxovatli ona zaminni e'zozlab, uning quvvatini oshirish o'niga o'ylab-netib o'tirmasdan o't qo'yish... Bu ham yetmaganday, "bag'ri kuygan" sho'rlik tuproqqa takroriy ekinlar ekib, undan yana hosil kutish... Bu ishlarni aql bilan tushunish qiyin.

Xazon va xas-hashak tuproq uchun koni foyda ekaniga hech qanday shubha yo'q. Chunki daraxt bargi organik moddalarning manbayi hisoblanadi. Ularni shunchaki yoqib yuborish yoki chiqindi poligoniga olib borib tashlash – toza ichimlik suvini oqizib isrof qilishdek gap. Aksincha, bunday bebaho tabiiy resursdan unumli foydalanish kerak. Xazonni tuproqqa aralashtirish esa eng sodda va xarajatsiz yechim hisoblanadi. Bunday xazonlar o'rtacha ikki-uch yilda chirib, yer uchun nihoyatda foydali bo'lgan gumus organik moddasiga aylanadi. Bugun yurtimiz tuprog'iga aynan mana shu modda yetishmayapti.

Xazonidan yanada samaraliroq foydalanish mumkin. Masalan, maxsus usul asosida uni biochar organik o'g'itiga yoki chuvalchanglar yordamida biogumusga aylantirish mumkin. Shu o'rinda xazonga shunchaki keraksiz chiqindi sifatida qarash oqibatida juda katta iqtisodiy zarar ko'rilayotganini ham unutmashlik lozim.

Yaqinda yurtimizda ilk bor amalga oshirilgan o'n ikki xil organik va maishiy chiqindilardan tabiiy o'g'it tayyorlash bo'yicha tajribalarimiz juda yaxshi natijalar berdi. Avvalo, ana shunday o'g'it bilan oziqlantirilgan tuproqning unumdorligi oshganiga guvoh bo'ldik. Qolaversa, bunday maydonlarda sho'rlangan tuproqlar harakati sezilarli darajada cheklangani va og'ir metallarning tuproqqa salbiy ta'siri kamaygani kuzatildi. Ta'kidlash kerakki, bu o'g'it ko'pchilik keraksiz deb hisoblaydigan maishiy chiqindidan olinyapti. Aslida, falon so'mga sun'iy o'g'it sotib olish shart emas, qalovini topib, bor imkoniyatlardan unumli foydalanish kerak, xolos.

Tabiat – o'ziga o'zi tabii. Saxovatli zamin insoniyatga xilma-xil noz-ne'matlarni yetkazib berar ekan, o'zi ularning oddiygina chiqindisiga ham qanoat qiladi. Faqat biz uni yerga qaytarib berishimiz kerak. Aslida organik tarkibiga ega har qanday chiqindini foydali o'g'itga aylantirish mumkin.

– **Ayting-chi, bugun yurtimizda tuproqshunos mutaxassislarga talab qay darajada? Ushbu soha bo'yicha ta'lim olgan yosh mutaxassislar ertaga ish topishda qiyinchilikka duch kelmaydimi?**

– Hozir kafedramizda agrokimyo va tuproqshunoslik ta'lim yo'nalishlari bo'yicha talabalar o'qitilyapti. Ular universitetni tamomlagach, ishlab chiqarish, pedagogika, ilmiy tadqiqot yo'nalishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatishadi. Raqamlar asosida gapiradigan bo'lsam, bakalavriat bosqichi bitiruvchilarining 40 foizi magistraturaga hujjat topshiradi, 5 foizi xorijda o'qishga qiziqish bildirmoqda. Ularning yarmidan ko'prog'i esa shu yo'nalishdagi tashkilotlarga ishga kiradi. Masalan, fermer xo'jaliklarida, Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutida, agrokimyo stansiyalarida, viloyatlardagi qishloq xo'jaligi boshqarmalarida faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Quvonarli jihati, so'nggi uch-



to'rt yil davomida talabalarimiz o'rtasida ilmiy tadqiqot ishlariga rag'bat va qiziqish sezilarli darajada kuchaydi. Aksariyat bitiruvchilarimiz shu sohada ko'proq ilmiy ish qilishga intilyapti.

Xullas, O'zbekistonda tuproqshunoslik sohasi bo'yicha ish o'rinlari yetarli, ayniqsa, yangi tashkil qilinayotgan xususiy laboratoriyalar va klasterlarda ushbu soha kadrlariga ehtiyoj yuqori hisoblanadi.

– **Ba'zi xorijiy davlatlarda poliz ekinlariga ular yetishtirilgan tuproqning tarkibiga qarab narx qo'yilar ekan. Aniqrog'i, tabiiy o'g'itlar bilan oziqlantirilgan mahsulotlar qimmatroq baholanadi... Xo'sh, biz iste'mol qilayotgan mahsulotlar yetishtirilayotgan tuproq tarkibi nazorat qilinadimi?**

– Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda tuproqning o'rni katta, ya'ni hamma yerda ham urug' unavermaydi. Yerga nimadir ekishdan avval uning tarkibini o'rganish kerak. Yurtimiz tuprog'i boshqa davlatlarinikidan keskin farq qiladi. Bizning tuproqlarning buferlik xossasi kuchli, ya'ni yerga qadalgan urug' yot moddalarga nisbatan juda ta'sirchan bo'lib, ularni tez o'zlashtirish qobiliyatiga ega. Bugungi kunda yurtimiz tuprog'ida gumusning kamayib, sho'rlanish darajasining ortib borayotgani eng katta muammo hisoblanadi.

Ochig'i, yurtimizda yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ekologik jihatdan ancha toza hisoblansa-da, hosildorlik darajasi uncha yuqori emas. Chunki gumus va oziq unsurlarining kamayganligi, zarur mikroelementlar yetishmasligi hosilning miqdori va sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan odamlarning tarvuz yoki pomidor yeb kasal bo'lgani qulog'imizga chalinadi. Ko'pincha bunga ularning tarkibidagi kimyoviy dorilarni sabab qilib ko'rsatishadi. Aslida esa, bunga o'sha mahsulotlarning pishib yetilmasdan, tarkibidagi nitratlar to'liq o'zlashmasdan turib uzib olingani sabab bo'lishi ham mumkin. Yaxshi pishgan hosil hech qachon insonni kasal qilmaydi.

To'g'ri, ko'pchilik dehqonlar yerga ozmi-ko'pmi ishlov berib, mahalliy va kimyoviy o'g'itlar bilan oziqlantiradi. Lekin muammo shundaki, ularning miqdori yetarli emas! Qolaversa, yerga ozuqa berishning vaqtini ham ilmiy izlanishlar yordamida aniqlash lozim. Masalan, tuproqqa har yili fosfor va kaliyli o'g'it solavermasdan, foydali mikroorganizmlarning imkoniyatlaridan ham unumli foydalanish hamda biologik o'g'itlar miqdorini ko'paytirish lozim. Olimlarimiz ushbu yo'nalishda ham samarali ilmiy izlanishlar olib borishmoqda.

Ta'bir joiz bo'lsa, bizning tuproq ham xalqimizga o'xshagan "xokisor", "mehnatkash". Bu sharoifati zaminda bir yilda ikki-uch marta bemaol hosil olish mumkin. O'zbekiston zaminini yuz million aholini ham bemaol boqa oladi. Faqat buning uchun ilmiy izlanishlarni ko'paytirib, yerning unumdorligini oshirish lozim.

– **Mutaxassislarning ta'kidlashicha, inson vujudiga zararli mikroplastmassalar havo, suv va oziq-ovqatlar orqali kiradi. Ba'zi olimlar esa, tuproqqa tushgan plastik parchasi poliz mahsulotlari tarkibiga o'tib, inson organizmiga kirishi mumkin, degan taxminni ilgari surishmoqda. Siz bu fikrga qanday qaraysiz?**

– Hozir bir martalik plastik idishlar ko'payib bormoqda. Tabiiyki, ularning kattagina qismi bevosita va bilvosita tuproqqa zarar yetkazmoqda. Bunday materiallar nafaqat inson salomatligiga, balki tabiatga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tuproqqa aralashgan plastik modda uning fizik xossasini buzib, namlik o'tishi, havo aylanishi va kislorodga to'yinish jarayonini izdan chiqaradi. Bu bilan ham qanoatlanmasdan, yer ostida yashovchi mikroorganizmlar va o'simlik dunyosiga salbiy ta'sir qiladi. Shuni ham unutmashlik kerakki, bir martalik yelim idishlar tuproqda to'rt yuz yilgacha parchalanmaydi.

Lekin bugun ayrim odamlarning sog'lig'iga xavf solayotgan mikroplastmassalar ularning vujudiga boshqa yo'llar bilan kirib qolgan aniq. Shukrki, biz hozir iste'mol qilayotgan meva-sabzavotlar tarkibida bunday zararli unsurlar mavjud emas. Yuqorida aytganimizdek, so'nggi yillarda keng ommalashgan yelim va plastik idishlarning to'liq chirib, tuproq tarkibiga singib ketishi uchun bir necha asrlar kerak bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, bu muammodan ko'z yumish yaramaydi. Olimlar ana shu xatarli materiallarni zararsizlantiradigan mikroorganizmlarni ham aniqlagan, lekin muammo shundaki, ular yer yuzidagi hamma tuproqda hama uchramaydi. Xullas, bu borada hali yana ko'p izlanishlar olib borish talab qilinadi.

– **Siz rahbarlik qilayotgan kafedrada tuproqshunoslik, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish yo'nalishlari bo'yicha yo'lga qo'yilgan xorijiy hamkorliklar to'g'risida ham to'xtalib o'tsangiz.**

– Ilm va ta'limda xorij oliy ta'lim muassasalari yoxud chet ellik olimlar bilan aloqa o'rnatmasdan, ular bilan tajriba almashmasdan turib biron yutuqqa erishish imkonsiz. Shu bois biz doimo chet ellik hamkasblarimiz bilan birgalikda ishlashga harakat qilamiz. Xususan, 2011–2019-yillarda Yevropadagi "Erasmus Mundus" fondi tomonidan moliyalashtirilgan ikkita yirik loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirdik. Akademik almashinuv doirasida 60 nafarga yaqin bakalavr, magistr, doktorant, tayanch doktorant va professor-o'qituvchilarni ko'hna qit'adagi yettita nufuzli oliy o'quv yurtiga o'qishga yubordik. Vakillarimiz xorijdagi zamonaviy laboratoriyalarda tuproqshunoslik bo'yicha yangi usullarni o'zlashtirib, ilmiy tadqiqotlar olib borishdi.

Bunday samarali hamkorliklarni bugungi kunda ham davom ettirayapmiz. Har yili 5-6 nafar xorijlik taniqli olim olinay yoki masofaviy shaklda talabalarimizga ma'ruzalar o'qiydi. Ayni paytda Germaniya, Polsha, Slovakiya, Turkiya va Chexiya mutaxassislari bilan birgalikda "Iqlim o'zgarishi sharoitida qishloq xo'jaligining moslashishi" mavzusidagi yirik loyihaga qo'l urish taraddudidamiz. Fundamental loyihamizga Varshava universitetining biologik va kimyoviy tadqiqotlar instituti direktori, professor Malgorzata Suska-Malavska va ushbu markaz professori Boguslav Vilkomirskiyni ham rahbar sifatida jalb qilganmiz.

– **Suhbatimiz oxirida tuproqshunoslik sohasidagi yutuq va kamchiliklar haqida ham to'xtalib o'tsangiz.**

– Tuproqshunoslik sohasida shu vaqtgacha ko'p tadqiqot olib borildi, ammo hali qilishimiz lozim bo'lgan ishlar behisob. Biz, avvalo, ilmiy kadrlarni to'g'ri yo'naltirishimiz zarur. Davlatimiz tomonidan sohani rivojlantirish uchun hamma sharoit yaratib berilgan. Hozir biz ilmiy kengashlar tuzish, xorijdan yoki o'zimizdan yirik loyihalarga buyurtma olish imkoniyatiga egamiz.

Xo'sh, bugun muammo nimada? Hozir yurtimiz tuprog'ining 60 foizga yaqini sho'rlangan. Iqlim o'zgaryapti, yillik yog'in miqdori kamayib, bul'ganish ko'payyapti, qurg'oqchilik xavfi yuqori, tuproqning kimyoviyifloslanishi, gumuslarning kamayishi va hokazo. Mana shunday sharoitda biz tuproqshunoslik ilmidagi kamida 20–30 yil oldinda yurishimiz, har qanday muammoga u chuqurlashib ketmasidan burun ilmiy yechim topishimiz lozim. Muxtasar aytganda, bugun bizning samarali ishlashimiz uchun barcha sharoit – zamonaviy jihozlangan xonalar, yirik mablag'lar ajratilib, xorijiy aloqalar ko'ngildagidek yo'lga qo'yilgan. Xullas, ishimizga to'sinlik qiladigan hech qanday muammo yo'q, hamma gap – o'zimizda! Biz yurtimizda tuproqshunoslik ilmini yanada yuksaltirish yo'lida tinimsiz izlanishimiz kerak.

Vasila HABIBULLAYEVA
suhbatlashdi.

Boshlanishi 1-sahifada.

“...1877-yilda Toshkentda “shahar nizomi” degan hujjat qabul qilinadi. Shu nizomga asosan shahar dumasi a'zolari va shahar boshlig'i saylangan. Duma a'zolarining faqat uchdan bir qismi mahalliy aholi yashaydigan hududdan saylangan, garchi son nisbat bo'yicha ruslar ozchilik bo'lsa-da, ular shahar dumasining uchdan ikki qismini tashkil qilishgan.

Toshkent shahri dahalariga qozilar ham ushbu nizom bo'yicha tanlangan.

1899-yil yozida Muhiddinxo'ja shaharning Sebzor dahasi qoziligiga ko'pchilik ovoz bilan saylanadi. Vakillardan 62 nafari uning nomzodini qo'llaydi, faqat 12 kishi qarshi ovoz beradi. Belgilangan tartibga ko'ra saylangan qozi nomzodi viloyat gubernatori tomonidan tasdiqlanishi kerak edi. Ammo viloyat gubernatori Muhiddinxo'janing nomzodini bekor qiladi. Nega?

Muhiddinxo'ja erkin fikrlovchi, millatparvar inson o'laroq anhadan

keltirgan. Fakt va dalillarni sanash bilan cheklanmasdan, ularni davr nuqtayi nazaridan tahlil qilishga uringan. Shu paytgacha vaqtli matbuotda general Jo'rabek haqida chop qilingan uzuq-yuluq xabarlar, ma'lumotlarni o'rinli tarzda “elakdan o'tkazib”, saragini sarakka, puchagini puchakka chiqazishni uddalashgani mutolaa davomida oydinlashadi.

Ta'kidlash joizki, o'lkamiz tarixida yorqin iz qoldirgan jadidlik harakati o'z davrida nafaqat ziyolilar, balki hur fikrli barcha kishilarni o'z safiga jamlagan. Ular orasida Xiva xonligi bosh vaziri Isomxo'ja kabi taniqli amaldorlar va albatta, birinchi o'zbek generali Jo'rabek kabi ilg'or fikrli kishilar ham bo'lgan. Ismoil G'asprali uning fojiali o'limi munosabati bilan “Tarjimon” gazetasida chop qilingan yirik ta'ziyanomada “General Jo'rabek tug'ma askar o'ldig'i holda ilm va maorifni ham juda sevgan bir kishi edi. Alloh undan o'z rahmatini darig' tutmasin”, deya hamdardlik bildirdi.

Ismoil G'asprali Bog'chasaroyda

MA'RIFATPARVAR GENERAL QISMATI

buyon “ishonchsiz shaxs” sifatida chor ma'murlari “qora ro'yxati”ga tushgan edi.

Jadidlar otasi Ismoil G'asprali Toshkentga kelganida (1893-yil) uni birinchilardan bo'lib mehmon qiladi, izzat-hurmat ko'rsatib, aziz mehmonning yelkasiga zar chopon yopadi. Qrimlik mehmon uchun bezatilgan davrada Jo'rabek va uning o'g'li Olloqulibek ham ishtirok etgan. Aynan Ismoil G'asprali bilan Jo'rabekni Muhiddinxo'ja ilk bora tanishtirgan.

Ular ertasi kuni Jo'rabekning Qorasuvdagi hovlisida mehmon bo'lishadi, ta'rifi yurt oshgan bog'ini ko'radilar...

Deyarli bir yarim asr ilgari bo'lib o'tgan ushbu voqealar tafsilotlari yaqinda “ADABIYOT” nashriyotida chop etilgan “General Jo'rabek: davr va qismat” tarixiy-hujjatli badiiasining beshinchi bo'limidagi “Qozi bilan qalin bo'lsang...” sarlavhali maqolada to'liq keltiriladi. Kitobning aynan ushbu bo'limida birinchi o'zbek generali Jo'rabek Qalandar qori o'g'lining jadidlik harakatiga qo'shilishi, Turkistonda ilma'rifat, kitobxonlik, vaqtli nashrlar, san'at va boshqa ijtimoiy sohalarida yuzaga kelgan o'zgarishlar jarayonini nafaqat qo'llagan, balki birgalikda ushbu “qozonda qaynagan” to'g'risida aniq tarixiy dalillar, yozma manbalar va zamonadoshlari xotiralari orqali o'qirmanlarga yetkaziladi.

Mustamlakachilik davri tarixida “murakkab shaxs” nisbatini olgan va aynan ushbu maqomi bois mustaqillik yillarida ham “ismini eslash nojoiz shaxslar” qatorida qolayotgan Jo'rabek Qalandar qori o'g'li aslida kim edi?

Jo'rabek 1840-yilda Kitob bekligiga qarashli Gulgunpo'sh qishlog'ida tug'ilgan, o'n ikki yoshida Buxoro amirining navbatdagi bosqinidan so'ng asir qilib olib ketilgan, jasurligi bois o'n sakkiz yoshida amir qo'shinida to'qsab (ming kishilik qo'shin boshlig'i) unvoniga sazovor bo'lgan. 20 yoshida xalq istagi bilan Kitob begi lavozimiga o'tirib, so'ng o'n yil butun hududni mustaqil idora etgan, chor Rusiyasi bilan yarim mustamlaka bo'lib qolishga rozilik berib sulh imzolagan otasi amir Muzaffarga qarshi to'ng'ich o'g'li Katta to'ra – Abdulmalik tomonidan e'lon qilingan qo'zg'olonga qo'shilgan, Samarqand-u Kattaqo'rg'oni egallagan rus qo'shinlariga u bilan birgalikda qaqshatqich zarbar bergan Jo'rabek va Bobobekning keyingi taqdirini davr shamollari o'zgartirib yuboradi. 1870-yil avgustida chor qo'shinlari Kitob Shahrizabz bekligini bosib oladi. Jo'rabek va Bobobek Qashqarga qo'shin to'plab kelish uchun ketayotganda Qo'qon xoni Xudoyor tomonidan ushlanib, chor ma'murlariga topshiriladi.

Turkiston general-gubernatori fon Kaufman Jo'rabekni maslahatchi-tarjimon sifatida mahkamasiga ishga oladi... Mualliflar ushbu tarixiy-hujjatli badiada general Jo'rabekning hayoti va faoliyati bilan bog'liq juda keng ko'lamli ma'lumotlarni tadjriy tartibda

muntazam chop qilgan ushbu gazetaning Turkistondagi eng faol targ'ibotchilaridan biri ham aynan Jo'rabek bo'lganini alohida e'tirof etadi. Bundan tashqari, o'zbek generali gazetani moddiy tomondan ham qo'llab-quvvatlab turgan.

Yana bir ahamiyatga molik holat: o'sha davrda (1870–1906-yillar) Turkiston va Rossiya hududlarida chop qilingan vaqtli nashrlarda general Jo'rabekning nomi eng ko'p tilga olingan. Keyinchalik matbuot nashrlarida uning yolg'iz o'g'li bo'lmish Olloqulibek (afsuski, u ham otasining fojiali o'limidan yigirma yil o'tgach, 1936-yilda sirli ravishda o'ldiriladi) shaxsiga alohida e'tibor qaratiladi. “Turkiston viloyati gazet” sahifalarida Olloqulibekning Peterburg va boshqa shaharlarga sayohatlari borasidagi taassurotlari to'liq holda chop qilinadi.

O'sha davrda Turkistonga safar qilgan aksariyat chet ellik sayyohlar, tadqiqotchilar Jo'rabek bilan uchrashib, uning shaxsiyati haqida iliq xotiralar yozib qoldirishgan. Mashhur sharqshunos olim, akademik Vasiliy Bartold Jo'rabekning o'z mablag'lari hisobidan Kitob va Toshkent shaharlarida ajoyib kutubxonalar barpo etganini hayrat bilan qayd etgan. Bartold o'zining “Turkistonning madaniy hayoti” nomli asarida general Jo'rabek bilan suhbatlari, uning nodir asarlarga to'la qiroatxonasi haqida batafsil to'xtalgani bejiz emas.

Amerikalik sayyoh va tarjimon Yujen Skaylarning quyidagi e'tirofiga diqqat qiling:

“...U men bilan uchrashgan bir necha mahalliy aholi vakillari ichida har qanday masalada uning so'ziga ishonish mumkin bo'lgan yagona kishilardan biri edi. Jo'rabek baland bo'yli, ingichka qora soqolli, kulrang yoqimli ko'zli va jiddiy qiyofali kelishgan o'zbek edi. U doimo oddiy, ammo nozik did bilan ozoda kiyinar va yuzida qayg'u ifodasi, istarasi, ko'rkam harakatlari kishini o'ziga jalb qilib, qiziqirtmasdan qo'ymasdi.

U haqiqatan ham mutlaqo olijanob odam edi. U haqiqiy musulmon...”

Keyingi vaqtlarda muhtaram Prezidentimizning tashabbusi bilan jadid bobolarimiz orzu qilgan ilm-ma'rifati jamiyat yaratish g'oyasi asosida Uchinchi Renessans poydevori barpo etilayotgani mualliflarni “General Jo'rabek: davr va qismat” tarixiy-hujjatli badiiasini yaratishga ilhomlantirgani, shubhasiz.

Mazkur asarning dunyoga kelishida O'zbekiston Qahramoni, adabiyotshunos Ibrohim G'afurov, O'zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A'zam, filologiya fanlari doktori, professor Xurshid Do'stmuhammad, siyosiy fanlar doktori Baxtiyor Yakubov ularga yaqindan ko'mak berganini ham alohida ta'kidlash o'rindir. “General Jo'rabek: davr va qismat” kitobi yaqin tariximizning sirli sahifalaridan biriga tutilgan yorqin ko'zgu sifatida ham ahamiyatlidir.

Jamolidin BADAL



Boshlanishi 1-sahifada.

Miloddan avvalgi I asrdan milodning IV asrigacha Kushon davlatida buddaviylik dini bilan bog'liq turli teatrlashgan tomoshalar mavjud bo'lgan. Ayritom ibodatxonasi peshtoqidagi cholg'uchi qizlarning tasvirlari shuni ko'rsatadi.

Keyingi davrlarda xalq bayramlari, marosimlar, urf-odat va ular bilan bog'liq tomoshalar aholi orasida keng tarqalgan. Masxara va taqlid teatrlari, qo'g'irchoq o'yin (chodir jamol, chodir xayol, fonus xayol) va boshqa shu kabi tomoshalar rivojlangan.

XX asr boshida jamiyatning ilg'or namoyandalari harakati va milliy dramaturgiyamizning tamal toshini qo'ygan atoqli ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning mashhur "Padarkush" asari bilan yangi o'zbek professional teatri yuzaga keladi. Jadid bobolarimiz Vatanimiz tarixining og'ir va murakkab davrlarida aynan teatr san'atini xalqning ko'zini ochadigan, uni ogohlikka chaqiradigan eng muhim omillardan deb bilganlari alohida ibratli hodisadir. Abdulla Avloniy rahbarligida tashkil etilgan "Turon" teatri ta'sirida 1916-yilda Qo'qonda, 1919-yilda Andijonda, 1922-yilda Xiva va Buxoroda teatrlar faoliyati yo'lga qo'yilgan.

DARVOQE,

1890-yillarda Gruziyadan Toshkentga ko'chib kelib, mehmonxona biznesi bilan shug'ullangan Georgiy Sinsadze bu yerda "Yevropa" va "Belvyu" nomli ikkita nufuzli mehmonxona qurgan. Keyinchalik "Yevropa" mehmonxonasini sotib, uning puliga "Kolizey" teatrlari barpo etgan. Qurilish 1902-yili boshlanib, 1913-yilda yakunlangan. 1 100 o'ringa mo'ljallangan bino arxitektor E.F.Gofman loyihasi asosida "nemis renessansi" uslubida qurilgan. Antrakt vaqtida tomoshabinlar tomadagi yozgi foyega chiqishlari mumkin bo'lgan. Teatr qoshidagi restoranda varyete tomoshalari uchun kichik sahna o'rnatilgan.

Bu yil tavalludining 150 yillik sanasi yurtimizda keng nishonlanayotgan buyuk ajdodimiz Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi daslab 1914-yilning 15-yanvarida Samarqandda ijro etilganidan so'ng, ushbu asar 1914-yilning 27-fevralida Abdulla Avloniy rahbarligida xuddi shu binoda namoyish etilgan.

BUGUNGI DAVRDA

teatr san'atini rivojlantirish masalasi doimiy kun tartibida bo'lib kelayotganini kuzatish mumkin. Shu maqsadda davlatimiz va hukumatimiz tomonidan muhim hujjatlar qabul qilingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 26-mayda "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni, 2022-yil 2-fevralda "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2023-yil 25-dekabrda "Aholiga madaniy xizmat ko'rsatish darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2024-yil 22-noyabrda "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari e'lon qilingan. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining ham bu borada qator qaror va farmoyishlari – jami 15 dan ziyod rasmiy hujjat qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tanishadigan bo'lsak, ushbu hujjatda teatr jamoalarini respublika bo'yab gastrol safarlariga yuborish, dramaturglar uchun Mahmudxo'ja Behbudiy hamda yosh rejissyorlar uchun Bahodir Yo'ldoshev nomidagi mukofotlar ta'sis etish, ijodiy hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan "Nigoh" ijodiy loyihasini amalga oshirish, milliy akademik musiqa san'atini rivojlantirish va ommalashtirish maqsadida kompozitorlar tanlovin o'tkazish, yuqori malakali ijodkorlar, teatrshunos va san'atshunoslarning mahorat maktablarini, bolalar va o'quvchi-talabalar uchun teatr to'garaklari va studiyalarini tashkil etish, teatr rejissyorlari akademiyasini tuzish singari o'nlab muhim vazifalar belgilab berilgan.

Kuni kecha matbuotda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligida 2025-yildan boshlab "Turon" maktab teatri respublika tanlovinu yuqori saviyada o'tkazish, ushbu tanlovda xususiy maktablarning ishtirokini ham ta'minlash, g'oliblarni munosib taqdirlash masalalariga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tgani haqida xabar e'lon qilindi. Bu, albatta, Prezident qarori ijrosi amalida ta'minlanayotganidan dalolat beradi.

Ayni vaqtda, yurtimizda Teatr arboblari uyushmasi, "Teatr" jurnali faoliyati yo'lga qo'yilganini ta'kidlash lozim. Teatrjamoalarimiz nufuzli xalqaro festivallarda faol ishtirok etmoqda. 27-mart – Xalqaro teatr kuni yurtimizda ham bayram sifatida keng nishonlanmoqda.

Teatrshunoslik fani izchil rivojlanib, San'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti, Toshkent

TEATR: U HOZIR HAM

davlat san'at va madaniyat institutida malakali mutaxassislar tayyorlanmoqda, teatr tarixi va taraqqiyotiga oid yangi tadqiqotlar yaratilmoqda.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ijodiy jamoalar, jumladan, teatrlar bilan yirik kompaniya va banklar ishtirokida "do'stlar klublari" tuzilgani yaxshi samara berganiga guvohmiz.

Ushbu sohaga mehr va havas qo'ygan yoshlarimizning iste'dod va qobiliyatini ro'yobga chiqarish uchun ijodiy tanlov va festivallar o'tkazilmoqda, yangi ta'lim dargohlari bunyod etilmoqda. Hududlarimizda madaniyat yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarining filiallari ochilmoqda, ularga qabul kvotalari oshirilmoqda, kam ta'minlangan oilalarga mansub iste'dodli qizlarimizga alohida imtiyozlar berilmoqda.

Bu ishlarining barchasi yurtimizda teatr sohasi rivojiga ulkan e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi.

O'ZBEKISTONDA NECHTA TEATR BOR?

Mamlakatimizdagi mavjud teatrlar nomlarini, keling, ma'lumot va targ'ibot uchun to'liq keltirib o'taylik.

Avvalo, akademik teatrlar haqida to'xtalsak. Ayni paytda bu yuksak maqomga erishgan teatrlar soni 5 ta:

O'zbek Milliy akademik drama teatri;
Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatri;
Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik musiqali teatri;
O'zbekiston davlat akademik rus drama teatri;

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri.

Drama, musiqali drama va satira yo'nalishlarida 18 ta teatr faoliyat olib bormoqda. Mazkur yo'nalishdagi teatrlar asosan poytaxtimiz va viloyatlar markazlarida, shuningdek, uchta shaharda faoliyat olib boradi, bular:

O'zbekiston davlat drama teatri;
O'zbekiston davlat musiqali komediya (operetta) teatri;
O'zbekiston davlat satira teatri;
Andijon viloyati musiqali drama teatri;
Buxoro viloyati musiqali drama teatri;
Jizzax viloyati musiqali drama teatri;
Namangan viloyati musiqali drama teatri;

Samarqand viloyati musiqali drama teatri;

Samarqand viloyati rus drama teatri;

Sirdaryo viloyati musiqali drama teatri;

Surxondaryo viloyati musiqali drama teatri;

Farg'ona viloyati musiqali drama teatri;

Farg'ona viloyati rus drama teatri;

Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri;

Xorazm viloyati musiqali drama teatri;

Kattaqo'rg'on shahar drama teatri;

Marg'ilon shahar musiqali maqom teatri;

Qo'qon shahar musiqali drama teatri.

Yoshlar va yosh tomoshabinlar teatrlari soni 18 ta:

O'zbekiston davlat yoshlar teatri;

O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri;

"Diydor" yoshlar eksperimental teatr-studiyasi;

O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri;

"Tomosha" bolalar musiqali teatr studiyasi;

Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatri;

Qoraqalpoq davlat qo'g'irchoq teatri;

Andijon viloyati yoshlar teatri;

Andijon viloyati qo'g'irchoq teatri;

Buxoro viloyati qo'g'irchoq teatri;

Jizzax viloyati qo'g'irchoq teatri;

Navoiy viloyati qo'g'irchoq teatri;

Namangan viloyati qo'g'irchoq teatri;

Samarqand viloyati qo'g'irchoq teatri;

Surxondaryo viloyati qo'g'irchoq teatri;

Farg'ona viloyati qo'g'irchoq teatri;

Qashqadaryo viloyati qo'g'irchoq teatri;

Xorazm viloyati qo'g'irchoq teatri.

va muhtasham binosida barcha zamonaviy sharoitlar bilan ta'minlanganini aytib o'tish zarur.

Mamlakatimizda xususiy teatr tashkil etish uchun ham tegishli imkoniyatlar yaratilgan. Ammo hozircha bu imkoniyatdan birgina jamoa – "Ilhom" teatri foydalanmoqda.

BUGUN RESPUBLIKA TEATRLARIDA

mehnat qilayotgan jami xodimlar soni 5 ming nafarga yaqinni tashkil qiladi. Ularning salkam 2 ming 700 nafari ijodiy xodimlar bo'lsa, 2 ming 300 ga yaqini texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar hisoblanadi.

Aktyorlarimizning:

41 nafari "O'zbekiston xalq artisti";

129 nafari "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" (yoki "madaniyat xodimi", "yoshlar murabbiysi") faxriy unvonlari;

211 nafari boshqa davlat mukofotlari bilan taqdirlangan.

Taassufki, bugun ko'pgina teatrlarimiz, ayniqsa, hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan teatrlarda oliy ma'lumotli ijodiy xodimlar yetishmaydi. (Hududiy teatrlarni kadrlar bilan ta'minlash masalasi mahalliy rahbarlarning e'tibori bilan ham bog'liq. Agar hudud rahbari teatrga ishga taklif etilayotgan mutaxassisni qo'llab-quvvatlasa, eng muhim masala bo'lgan uy-joy bilan ta'minlashga ko'mak bersa, teatr xodimlari uchun homiyilar birliktirsa, maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylaymiz).

DEMAK,

mamlakatimizning 37 milliondan ortiq aholisi uchun 41 ta teatr faoliyat ko'rsatmoqda.

Agar teatrga kelish imkoni bo'lmagan 3 yoshgacha go'daklar hamda juda kexsa fuqarolardan iborat o'rtacha 3 million kishini hisobga olmagan holda aytisak, bu, 800 mingdan ortiq odamga bitta teatr yoki qariyb 2 ming 300 nafar tomoshabinga teatrdagi bitta o'rin to'g'ri keladi, degani.

Bu ozmi, ko'pmi? Albatta, haqiqat qiyosda bilinadi.

TAQQOS UCHUN

ayrim misollarni keltirib o'tamiz.

Masalan, 2023-yil o'rtalarida 59 millionga yaqin aholiga ega bo'lgan Italiyada 6 ming 700 ta, qariyb 68 million fuqaro yashaydigan Fransiyada esa 2 mingdan ortiq teatr borligi aytiladi. Shuningdek, AQShda 2 mingdan ziyod, Buyuk Britaniyada mingdan ortiq, Xitoyda 2 mingga yaqin, Hindistonda esa mingga yaqin teatr mavjud.

Aholisi taxminan 86 million kishini tashkil etadigan qardosh Turkiya davlatida 14 ta davlat teatri, 10 ta ko'chma teatr, 59 ta teatr sahnasi mavjud hamda 600 dan ortiq xususiy teatrlar faoliyat yuritib kelmoqda. Yon qo'shniimiz Qozog'istonda taxminan 20 milliondan ortiq aholiga 74 ta teatr xizmat ko'rsatadi.

UMUMAN OLGANDA,

bugungi kunda yer yuzida qancha teatr faoliyat yuritayotgani haqida aniq raqamlarni taqdim etish qiyin bo'lsa-da, mavjud ma'lumotlar va rivojlanish tendensiyalariga asoslanib, dunyodagi teatrlar soni 100 mingtadan 150 mingtagacha baholanadi.

YUQORIDA

mamlakatimizda 41 ta teatr, 2 ming 700 ga yaqin teatr aktyori faoliyat yuritayotganini aytib o'tdik. Bir qarashda, bu raqam 37 milliondan ziyod aholi uchun juda ozdek.

Lekin masalaning boshqa jihati ham bor.

Agar biz milliy tomoshabinlarimizning ushbu san'atga bo'lgan ehtiyojini, achchiq bo'lsa-da, aytaylik, aksar hollarda tomosha zallarining to'lmashligini hisobga olib yondashsak, mana shu 41 ta teatr ham bizga ko'pdek tuyuladi.

Darvoqe, xorijiy davlatlardan birida bo'lib qaytgan hamkasbimiz yozgan edi: o'sha o'lkada katta-kichik teatrlar juda ko'p bo'lishiga qaramasdan, barchasida tomosha chiptalari bir oy – ikki oy burun to'la sotib bo'linar, birorta teatrga xohlagan paytda chipta topish ilojisiz ekan.

Shu o'rinda, mavzuga oid bir essenini keltirib o'tishimiz joiz – u yozuvchi Xayriddin Sultonning "Navoiy – 30" kitobidan olingan.

BU XOTINNING ERI YO'QMIDI?

Birinchi kursda bizga antik adabiyot fanidan Viloyat Fayziyeva degan dotsent opa dars bergan edi.

Sofokl ijodini o'rganishga yetib kelganimizda u kishi:

– Shanba kuni Hamza teatrida "Shoh Edip" spektakli o'ynaladi. Bosh rolda – Shukur Burxon. Kechqurun soat besh yarimda hammangizni teatr kassasi oldida kutaman. Birgalashib ko'ramiz, keyin darsda muhokama qilamiz, – deb e'lon qildi.

G'irillab shanba ham yetib keldi. Biz, nodon, o'yinqaroq talabalar, tabiiyki, teatr haqidagi gapni aytilgan zahoti unutgan edik. To'g'ri-da, o'zingiz o'ylang axir, haftada bir keladigan muborak kun – shanbani pivo yo futbol, yo choyxonadagi osh o'mniga qanaqadir teatrga qurbon qiladigan anoyi bor ekanmi? Vijdoni picha qiynalgan bitta-yarimtamiz esa darhol o'zimizni oqlaydigan vaj-korson topdik: kelarmidi, aytdi-ko'ydi-da. Nima, bu xotinning boshida eri, qaynonasi, bola-chaqasi, uyida ro'zg'or tashvishi yo'qmi, ishdan keyin biz bilan teatrga yetaklashib yursa...

Dushanba kuni ma'lum bo'ldiki, yigirma beshta talabandan birontasi "Shoh Edip"ga bormabdi. Shoh bo'lsa o'ziga.

Antik adabiyot darsi boshlandi. Opa Homer haqidagi mavzuni juda maroqli qilib tushuntirib berdi. Xayriyat, teatrga kelmagan ekan, deb biz ham yengil tordik.

Qo'ng'iroq chalinganida bizga qarab sekingina:

– Shanba kuni sizlarni teatrga bir soat kutdim, – dedi. – Afsus, kelmadinglar. Kelasi shanba soat besh yarimda kassa oldida kutaman. Xayr.

Qattiqqo'l, talabchan bu opaning bizni koyib-netib o'tirmaganini ko'rib, hayron qoldik.

Yana shanba keldi. Har kim har yoqqa tarqab ketdi. Spektakl tag'in esdan chiqdi. Dushanba kuni ma'lum bo'ldiki, yigirma beshta talabandan uchta qiz, ular ham tug'ilgan kundan chiqib, teatrga boribdi. Dotsent Viloyat Fayziyeva bilan "Shoh Edip"ni tomosha qilishibdi. Ularning spektakl haqidagi taassurotlari "Dahshat!" degan bitta so'zdan iborat edi.

Tag'in antik adabiyot darsi boshlandi. Opa Esxil ijodi haqida zo'r ma'ruza qildi. Dars tugagandan keyin bizga qarab sekingina:

– Shanba kuni kutdim, yigirma ikki kishi yana kelmadi, – dedi. – Afsus. Sizlarga bitta savolim bor: Toshkentga nega kelgansizlar o'zi? ToshDuda o'qiyapman, deb avvalo otanangizni, keyin o'zingizni aldab yurgandan ko'ra, haliyam kech emas – qishloqlaringizga qaytib ketganingiz ma'qul. Dalangizda qo'y boqib, bog'ingizda olma qoqib yursangiz ham kuningiz o'tadi. Lekin teatrim, galereyani, konservatoriyani, muzeyni ko'rmasdan-bilmasdan turib, odam qanday jurnalist bo'lishi mumkin? Qanday ziyoli bo'lishi mumkin? Ertaga boshqa millat vakillari bilan qanday teng bo'lib gaplashishi mumkin?

Egilgan boshni qilich kesmas, degan gapga amal qilib, hammamiz boshimizni egib olgan edik.

– Shanba kuni soat besh yarimda sizlarni teatr kassasi oldida kutaman, – dedi opa, keyin siri ohangda qo'shib qo'ydi: – Ey nodon bolalarim, Shukur Burxon ham g'animat, ko'rib qolinglar. Xayr.

Domlaning gaplari jon-jonimizdan o'tib ketgan ekan, shanba kuni hammamiz yasantusan qilib Hamza teatriga bordik. Kassa oldida opa bizni kutib turgan ekan, birgalashib zalga kirdik.

Spektakl boshlandi va besh daqiqga o'tmasdan biz... jinni bo'lib qoldik – sahnada buyuk Shukur Burxonni, betakror Qudrat Xo'jayevni, beqiyos Amin Turdiyevni ko'rib... Spektaklga boshqa odamlar bo'lib kirgan edik – butunlay boshqa odamlar bo'lib chiqdik. Antik adabiyot muallimasi Viloyat Fayziyevaning sharofati va marhamati bilan, ilohiy san'atning qudrati bilan qalblarimizda mana shunday buyuk evrilish yuz berdi. Shu kundan e'tiboran barchamiz teatr shaydosi – ashaddiy "teatr"larga aylanib qoldik.

Hamza teatrlarining ham eng gullab-yashnagan davrlari edi. Shaxsan men teatr sahnasida qo'yilgan "Hayot shomi" spektaklida Olim Xo'jayevni, "G'ariblar"da Nabi Rahimov bilan Sora Eshonto'rayevani, "O'g'irlangan umr"da Yayra Abdullayevani, "Oltin devor"da G'ani A'zamovni o'z ko'zim bilan ko'rish baxtiga musharraf bo'ldim.

Viloyat opa esa bir semestr dars berib, biz bilan xayrlashib ketdi. Umr yo'llarida qaytib ko'rishish nasib etmadi.

...Ba'zan turib-turib o'yab qolaman: chindan ham, bu xotinning boshida tergaydigan eri, qaynonasi, etagiga yopishadigan bola-chaqasi, ro'zg'or tashvishi yo'qmidi? Bor edi, albatta. O'zi kursdosh qizlarimizdan biriga aytgan ekan: uch bolasi, eri, qaynonasi bilan birga yashar ekan. Lekin, nazarimda, bu ayolning qalbida o'zbek ziyolisi, o'zbek millati uchun qayg'urish tuyg'usi bor edi. Va bu tuyg'u qolgan hamma narsadan ustun edi.

AYTING-CHI

hozir ham o'z ishidan, oilasidan ortib, qalb amri bilan talabalarini teatrga olib keladigan mana shunday fidoyi domlalar bormi? Balki, bordir, agar biz bilmagan, ularni teatrga ko'rimgan bo'lsak, uzr so'raymiz. Lekin, teatr xodimlaridan so'raganimizda ham, ular olimlar, professor va akademiklar, yozuvchi va shoirlar, jurnalistlar, rassomlar va boshqa ijodiy sohalar vakillarini ham teatrga kam uchratishlarini, ziyolilarimiz aksar hollarda biror tadbir munosabati bilan kelishlarini ta'kidlashdi.

Afsuski, bizda teatr jamoasi "teatrga kelmaydi" deb tomoshabinni, tomoshabin "yaxshi spektakl yo'q" deb teatrim ayblashi odat bo'lib qolgan.

Bu borada xorijning ilg'or teatrlaridan tomoshabinni jalb qilish tajribasini ham o'rganish zarurga o'xshaydi.

Deyliki, har bir teatrim yirik tashkilotlarda o'zining chinakam do'stlari, fidoyi muxlislari bo'lsa, ular spektakllarni jamoasida targ'ib qilib borsa, yoki turli muassasalar, oliy ta'lim maskanlarining rahbarlari teatrga taklif qilinib, avvalo ularning o'zlarida qiziqish uyg'otilsa, bu tadbir ham kutilgan samarani berishi mumkin.

TEATR VA TOMOSHABIN

o'rtasida mustahkam aloqaning yo'qligi, bu maskanlarning muxlislar bilan hamisha gavjum bo'lmagani, chipta narxlarining arzonligi (yurtimizda teatr chiptalari narxi o'tacha 25-30 ming so'm atrofida) va xaridorgir emasligi yana bir jihatda – teatrlarga sarflanayotgan mablag' o'zini qoplamasligida ham yaqqol ko'rinadi.

Teatrlarga davlat tomonidan ajratiladigan mablag' o'zini qoplaydimi? Yo'q. Masalan, birgina 2024-yilda davlat teatrlariga barcha xarajatlar uchun 227,4 milliard so'm ajratilgan holda, mazkur teatrlar tomonidan spektakllar namoyishi orqali 21,6 milliard so'm mablag', shuningdek, servis xizmatlari ko'rsatish orqali 392 million so'm qo'shimcha mablag' topilgan.

Agar barcha teatrlar 100 foiz qamrov bilan ishlasa, ya'ni har bir spektaklda zal tomoshabinlar bilan liq to'lsa, chiptalar sotuvidan 100 milliard so'm atrofida mablag' topish mumkin ekan. Ana endi, bu 100 milliard so'mni yuqoridagi 21,6 milliard so'm bilan taqqoslab, teatrlarimizdagi tomoshabin qamrovi darajasini o'zingiz hisoblab ko'rsangiz bo'ladi.

O'RNI KELGANDA,

tomoshabin madaniyati haqida ayrim achchiq kuzatuvlarga ham to'xtalib o'tmasak bo'lmaydi.

Afsuski, teatrga tushayotgan odamlarning barchasi ham san'atning chin muxlisi emas (boshqa konsert va tomoshalar haqida ham shunday deyish mumkin). Shunchaki vaqt o'tkazish yoki majburiyat ostida teatr ostonasini hatlaydiganlar yetarlicha topiladi.

Tomosha madaniyati yetishmaydigan yoki unga amal qilmaydigan bu insonlar:

avvalo, tomoshaga kechikib keladi;
sahnadagilar va atrofdaqilarga xalal berib, uzoq vaqt paypaslab joy qidiradi;
sumkalarini, qalin kiyimlarini qo'lida olib o'tiradi;

u qatordan bu qatorga bemalol o'tib yuradi;

yalpayib o'tiradi;
sahnada kechayotgan voqealarni his qilmaydi;

tomosha paytida ovozini baland qo'yib bir-biri bilan gaplashadi;

telefon o'ynaydi;

aktyorlarga luqma tashlaydi;

hali tomosha nimaligini anglamaydigan, xohlagan vaqtda yarxa xaxasha ko'tarishi mumkin bo'lgan go'dagi bilan keladi;

yigit bilan qiz bo'lsa, bir-birining pinjiga suqiladi;

chalpillatib saqich chaynaydi;

ovqatlanib o'tiradi;



IBRATXONAMI?

zalga chiqindi tashlaydi, hatto nos tufflaydiganlar ham topiladi; tomosha tugamasdan zaldan namoyish-korona chiqib ketadi; chiqishda boshqalarga hurmat ko'rsatmaydi, xuddi bino ichida qolib ketadiganday eshikka hamma baravar intiladi, hech kim hech kimga yo'l bermaydi; garderboda ham talashib-tortishadi va hokazo.

Eng afsuslanarli holat, sahnada shu tomoshabin uchun mehnat qilgan – kerak bo'lsa, kuyib-yongan, buning uchun oylab, yillab tayyorlangan ijodiy jamoani tomosha oxirida qo'llab-quvvatlash madaniyati bizda umuman yo'q. Mayli, gul-qul bermasiz, lekin, nahotki, 4-5 daqiqagina qarsak chalib turish shunchalik qiyin bo'lsa? Ijroni yakunlab, muxlislarga ta'zim qilish uchun chiqqan aktyorlar zalni yov quvgandek tark etayotgan odamlarni ko'radi, xolos, axir ular kimga hurmat bajo etish uchun chiqqan edi?

Mashhur italyan rejissyori Federiko Fellini: "Tomoshabin hamisha haq, faqat u buni bilmasligi kerak" deb yozganida, albatta, yuksak madaniyatli, san'atni chuqur tushunadigan, talabchan muxlislarni nazarda tutgan, bu o'rinda san'atdan butkul yiroq, teatrga adashib kirib qolgan "tomoshabin"lar nazarda tutilmayapti, aslo.

Teatr rivojlanishi uchun avvalo tomoshabin madaniyati yuksalishi kerak. Didi baland tomoshabinning talabi ham baland bo'ladi. Bu talabga javob berish uchun esa, o'z navbatida, teatr jamoasi ham izlanishga, oldinga intilishga, nimadir yangilik qilishga, bir so'z bilan aytganda, rivojlanishga harakat qiladi.

Shu bois, tomoshabin madaniyatini oshirish masalasi ta'lim-tarbiya tashkilotlari, ommaviy axborot vositalarining e'tibor markazida bo'lishi kerak.

O'ylaymizki, o'rta umumta'lim maktablarida tuzilayotgan teatr to'garaklari ham o'quvchilarda madaniy saviyani, jamoat joylarida, jumladan, teatr va klublarda, turli tadbirlarda, ko'chako'ya o'zini munosib tutishni tarbiyalab borsa, muhim va ezgu bir ishni amalga oshirgan bo'ladi.

ASLIDA,

hayotning o'zi teatr, unda hamma yashab – o'zining rolini o'ynab o'tadi. Kimdir dono – kimdir nodon, kimdir jo'shqin – kimdir tanbal, kimdir samimiy – kimdir soxta... har kimning o'z xarakteri bor. Tomoshaga tushdingmi, tomoshabin roliga kirasan. Aslida, eng yuksak mahorat bilan ijro etilgan obraz ham, fikrimizcha, mana shu – o'z obrazida yashab o'tishdir.

2016-yilgi Nobel mukofoti sovrindori, amerikalik qo'shiqchi va shoir Bob Dilan aytadiki: "Bob Dilan hamisha mavjud edi, hatto men dunyoga kelishimdan oldin ham. Bu rolni ijro etayotganim sababi, ehtimol, hammandan ko'ra ko'proq unga mos kelganimdir".

REPERTUAR:

QANDAY MAVZULAR YETAKCHI?

Yuqorida davlatimiz tomonidan teatr san'atini rivojlantirishga qanchalik katta va jiddiy e'tibor qaratilayotgani aytib o'tildi. Xo'sh, teatrlarimizda mana shu e'tiborga yarasha xalqimiz kutayotgan asarlar sahnalashtirilayaptimi? Spektakllarda bugungi kun nafasi seziladimi, odamlarni o'ylantirayotgan, hayajonga solayotgan jiddiy ijtimoiy muammolar sahnada o'z aksini topayaptimi?

Dunyoda yetuk san'atkorlar teatr modelini, tarkibini zamonaviy asosda qayta tuzishga intilayotgan bir paytda, bizda ahvol qanday? Yangilikka intilish, tomoshabin e'tiborini tortadigan noan'anaviy yondashuvlar, izlanishlar bormi?

Davlat va jamiyat teatrdan o'zi kutayotgan narsani o'layaptimi? Ahvol: "Mevalar berarmikan, deb tol ekibman – meva bermadi", qabilida emasmi?

Ko'pchilik taniqli adib Sobir Abdullaning "Tohir va Zuhra" dramasi uzoq yillar sahnadan tushmagani, o'sha asarga yozilgan "To'ylar muborak" ashlasi hozirga qadar to'ylarda kelinni kutib olishda ijro etib kelinadigan asosiy qo'shiq sanalishini yaxshi biladi. Yoki Uyg'un va Izzat Sulton hammuallifligida yaratilgan "Alisher Navoiy" spektaklidagi monologlarni yuzlab odamlar yoddan aytib yurgunini ko'rganmiz. Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

Yurtimizda ikki yildan buyon Mudofaa, Madaniyat vazirliklari, Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi

va boshqa tegishli tashkilotlar hamkorligida o'tkazib kelinayotgan "Vatan manzumi" nomli teatrlashtirilgan adabiy-ma'rifiy kecha o'n minglab tomoshabinni qamrab, keng jamoatchilik o'rtasida kuchli rezonans uyg'otayotganiga hammamiz guvohmiz.

"O'zbek teatr san'ati qasrining o'xshashi yo'q me'mori Yetim Bobojonov shogirdlariga hamisha sahnaga yolg'iz chiqma, deb ta'kidlar ekan, o'ynayotgan roling bilan birga yur, uni kuzatib, tergap bor, der ekan. Bu ta'limda katta ma'no bor" deb yozgan edi atoqli shoir Turob To'la.

Bugun teatrlarimizda jamiyat hayotidan o'rin oladigan, odamlarning tili va dilidan o'rin olgan mana shunday asarlar, obrazlar, spektakllardan lavhalar, dialoglar, monologlar, qo'shiqlar bormi?

Keling, yuqoridagi savollarga javob topish uchun teatrlarimizda 2024-yilda sahnalashirilgan asarlarning nomlari va mualliflari ro'yxatiga nazar tashlaylik.

ASARLAR:

"Imom al-Buxoriy va Suxarno", "Makr va muhabbat", "Tog' bulbulining so'nggi xonishi", "Xonuma", "Kalvak maxzum", "Bukri oshpaz", "Taqrir oshiyoni", "Kulolning armoni", "Alimentchi chol", "Iste'dod qudrati", "Balzaminovning uylanishi", "Bobur. Yulduzli tunlar", "Latta qo'g'irchoq", "Sen gulsan, jonim", "Osmon hamma gapni eshitadi", "Muhabbat navolari", "Bahor sog'inchi", "Lazgi", "Layli va Majnun", "Pushkin tirik", "Ajab hangomalar", "Olishuv", "Kazbek: qahramon qismati", "Yusufjon qiziqni eslab", "Ishq masali", "Bexato otigan o'q", "Tanho yulduz", "To'da", "Maxtumqul", "Aldagani ayol yaxshi", "Lazgi afsonasi", "Monolog", "Ko'chki", "Osmondan tanga yog'gan kun", "Ovsar", "Vertolyot", "Ruhlar isyon", "Chor darvesh", "Revizor", "Ajiniyoz", "Orolim mening", "Jar", "Jumagul", "Avtohalokat", "Buzruk haqida afsona", "Uchburchak", "Oqqush qo'shig'i", "Kulgu akademiyasi", "Osmonning egasi bor", "Chexov hazillari", "Ona", "Hazilkash shoh", "Zebunniso", "Alvido, bolalik", "Sab'ayi sayyor", "Sadoqat", "Ikki boya bir malay", "Yer baribir aylanaveradi", "Senga intizorman", "Bir kunlik baxt", "Bog'lasangiz bog'lanay", "Ishlaganday bo'laylik", "Tanho qayiq", "Romeo va Julyetta", "Turkiston bolalari", "Kichik fojialar", "Sevgi sababi", "Jadidlar. So'nggi kunlar", "Maysaraning ishi", "Arshin mol olan", "Uydagi gap ko'chada", "Dildor", "Oqibat", "Advokatlik osonmi?", "Alisherbek va Husayn", "Shoir qalbi", "Muqaddas bahor", "Yevgeniy Onegin", "Skapening nayranglari", "Cho'lon", "Birinchi qaldirg'och" ("Ma'suma"), "Ko'ngil ishq istaydi", "Keksa xonim va o'g'ri", "Davlat bolalari", "Muhabbatga yo'g'rilgan umr"...

AYNI VAQTDA,

2024-yilda yosh tomoshabinlar uchun 60 dan ziyod spektakl yaratilgan. Ular orasida "Buyuk Beruniy", "Temurbekning bolaligi", "Ali Qushchi", "Kichkina shahzoda", "Men uchuvchi bo'lsam", "Bilimdonlar maskanidagi mo'jizalar", "Sehrli belgilar mamlakati", "Mehri ila sehrlangan joy", "Ona tabiat va janob Metal", "Nonni bosgan qizaloq" singari asarlar muvaffaqiyatli sahnalashirilgan, bolalarning ong-u dunyoqarashini o'stiradigan spektakllar sifatida e'tirof etilgan.

SAHNANI SO'Z HARAKATGA KELITIRADI

Bu so'zning boshi esa afshada, spektakl nomida aks etadi. Sarlavha – yarim asar, degan gaplar ham bor. Aksar hollarda sarlavhasi, ya'ni nomiga qarab asar mazmunini bilish, hech bo'lmasa, taxmin qilish mumkin.

Yuqorida bir yil davomida yurtimiz teatrlarida sahnalashirilgan asosiy asarlar ro'yxati keltirildi (ro'yxatga kirmay qolgan spektakllar bo'lishi mumkin).

Endi bu ro'yxatni yana bir marta jiddiy tahlil qilib chiqing. Sizni qiziqtirgan, borishingiz yoki farzandlaringizga tavsiya qilishingiz mumkin bo'lgan asarlar nomini belgilang.

Ayting-chi, nechta asarni belgiladingiz? Belgilaganingiz belgilanmagani bilan ko'pmi – ozmi?

Endi ushbu asarlarning mualliflarini keltirib o'tamiz. O'ylaymizki, bu ro'yxat ham teatrlarimiz repertuari haqida yaxshigina taassurot beradi.

Aytganча, bu ro'yxatga ham jiddiy qarab, o'zingiz bilgan yoki sizni ijodi qiziqtirishi mumkin

bo'lgan mualliflarni belgilab, shu asosda tahlil qilib chiqishni taklif etamiz.

XORIJYI MUALLIFLAR:

V.Shekspir, K.Goldoni, F.Shiller, X.Andersen, Molyer, A.Sent-Ekzyuperi, G.Gauptman, U.Gibson, N.Garnet, G.Andersen, Aka-uka Grimmilar (ikkita asari sahnalashirilgan), G.Markes, J.Kokto, T.Uilyams, F.Dyurrenmatt, F.Arrabal, J.Lada, A.Lingerd, X.Stoychev, A.Pushkin (ikkita asar), N.Gogol, P.Chaykovskiy, A.Kartayev, A.Kuprin, Y.Seleznova, G.Pavlovskiy, S.Marshak (ikkita asar), M.Zoshchenko, A.Chexov (ikkita asar), M.Kuzmin, A.Ribnikov, T.Jo'jano'g'li (ikkita asar), G.Gorin, A.Ostrovskiy, S.Aksakov, O.Mixaylov, I.Stravinskiy, V.Savin, M.Lichkovskaya, K.Dimonov, A.Metelyova, L.Lopeyska, G.Krchulova, Y.Speranskiy, M.Doloko, L.Ionov, A.Zaysev, R.Hamroz, K.Mitani, Nguyen Din Txi, A.Fayziy, A.Sagereli, M.Bayjiyev (ikkita asar), S.Rayev, D.Filippovich, T.Hakim, U.Gadjibekov, N.Garnet, A.Dog'an...

MAHALLIY MUALLIFLAR:

A.Avloniy, A.Qodiriy, H.H.Niyoziy, M.Ashrafy, H.Olimjon, S.Ahmad, P.Qodirov, E.Vohidov, T.Qayipbergenov, T.Malik, Sh.Boshbekov, E.A'zam, U.Azim, I.Mirzo, J.Mahmud, Sh.Rizayev, H.Muhammad, H.Rasul (uchta asari sahnalashirilgan), O.Salimov, N.Qobul, Q.Norqobil (uchta asar), E.Xushvaqto'v, A.Kabulov, M.Ergasheva, R.Farhodiy, H.Siddiq, R.Muhammadjonov, N.Qurbonova, K.Turdiyeva, T.Hojiyev (ikkita asar), R.Abdurahmonova, R.Allanazarov, N.Abbosxon (uchta asar), Q.Muhammadzoda, O.Tojiyboeva, T.Jabborov, D.Haqberdiyev, G.Matyoqubova (ikkita asar), E.Norsafar, I.O'rmon, S.Odilov, X.Egamberdiyev, B.Matniyozov, Q.Boltayev, N.Abdurahmonov, O.Yakubov, U.Otajonov, Sh.Fayzullayev, M.Polvonova, N.Genjebekov, U.O'sarov (uchta asar), J.Mahmudov, L.Navro'zov, G.Najidova, X.Oxunov, F.Mirzayev, A.Niyo'zov, N.Muxammaddinov, Q.Zaretidinov, K.Rahmonov, G.Rahmonova, N.Habibullayev, S.Sirojiddinov (ikkita asar), M.Egamnazarova, T.Rahmatullayev, G.Istamova, A.Xurramov, M.Ro'ziyev, N.Kazakova, H.Ziyayeva, M.Ashurova, M.Mo'minova, Sh.Ibragimov, M.Iskandarova, Sh.Mahkamov, K.Dilmonov, I.Sodiqov, A.Jaksimuratova, A.Raxat, N.Rahimov, N.Mahkamova, A.Xolmo'minov, Sh.Fayzullayev...

Shuningdek, o'zbek xalq ertaklari asosida bir necha spektakl sahnalashirilgan.

BU RO'YXAT

shunchaki keltirilmadi. O'ylaymizki, spektaklning nomi bilan tanishgan o'quvchida 2024-yilda teatrlarimiz sahnasida namoyish etilgan asarlar haqidagi dastlabki taassurotlar paydo bo'ladi. Qolaversa, mualliflar ro'yxati ushbu taassurotlarni yanada to'ldiradi.

Ro'yxatga ko'ra, barcha teatrlar repertuari g'oyaviy-badiiy jihatdan talab darajasida, deb bo'lmaydi. Ular orasida tomoshabinni o'ylantiradigan, mushohadaga chorlaydigan, uning ma'naviy olamini yuksaltiradigan asarlar bilan bir qatorda, maishiy mavzulardagi, osongina qabul qilinadigan yoki yengil-yelpi kulgiga asoslangan asarlar ham, afsuski, yo'q emas.

(Bu o'rinda 2024-yildan avval sahnalashirilgan, lekin namoyishi davom etayotgan asarlar keltirilmaganini eslatib o'tamiz).

Mashhur adib Frans Kafka aytganidek, "teatr hayotga ta'sir ko'rsatmog'i uchun kundalik turmushdan kuchliroq, jo'shqinroq bo'lmog'i lozim. O'q uzishda mo'ljal doim nishondan yuqoriroq olinadi".

ALBATTA,

o'tgan yil davomida sahnaga qo'yilgan spektakllar orasida, masalan, "Lazgi afsonasi", "Ovsar", "Avtohalokat", "Uchburchak", "Buzruk haqida afsona", "Ishlaganday bo'laylik", "Tanho qayiq", "Romeo va Julyetta", "Jadidlar. So'nggi kunlar", "Birinchi qaldirg'och" ("Ma'suma") singari ijobiy ma'noda shov-shuv ko'targan, tomoshabinlarning e'tiborini qozongan, taniqli ziyolilarimiz tomonidan ommaviy axborot vositalarida e'tirof etilgan asarlar ham bo'ldi.

Lekin yana savol tug'iladi. Mana shunday asarlar nima uchun ommalashtirilmagan, bitta sahnaning o'zida qolib ketadi?

Misol uchun, "Diydor" yoshlar eksperimental teatr-studiyasida qo'yilgan "Avtohalokat"

spektakli o'sha kichik sahnaning o'zida qolib ketdi. Katta sahnalarga, boshqa teatrlar sahnalariga, deyarlik, O'zbek Milliy akademik drama teatriga sahnasiga olib chiqilmadi. O'zbekiston davlat drama teatriga ta'mirdan oldingi sahnasida muvaffaqiyatli namoyish etilgan "Romeo va Julyetta" asari ham birgina teatr bilan cheklanib qoldi. Madaniyat vazirligining o'z jamoasi mehnatiga e'tibori shumi?

TEATR JAMOALARI

FIKRLARIGA KO'RA:

ayni paytda tomoshabinlar ko'proq komediya va maishiy asarlarga qiziqish bildirmoqda.

Tomoshabinlar orasida 30 yoshgacha bo'lgan insonlar, ya'ni o'quvchi va talabalar, shuningdek, uyushgan holda olib kelinadigan tomoshabinlar – o'qituvchilar, shifokorlar, harbiy xizmatchilar, kasaba uyushmalari xodimlari ko'proq. Bu o'rinda bayram sanalariga bag'ishlab tayyorlangan teatrlashtirilgan konsert dasturlari gavjum bo'layotganini ham aytib o'tish joiz.

Teatrga odamlarni jalb qilish, spektaklni madaniy voqea darajasiga olib chiqish uchun turli ommaviy axborot vositalari, xususan, televideniye va radio, davriy nashrlar, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda targ'ibotni, marketing xizmatini kuchaytirish, yangi asarlar videoroliklarini muntazam namoyish qilib borish zarur.

Shu bilan birga, tomoshabinni larzaga soladigan sahna asarlari yaratish, har bir asarga mashhur aktyor va aktrisalardan birini bosh qahramon obraziga taklif etish, teatrlarimizni so'nggi texnologiyalar bilan boyitib, zamonaviy qarash va yondashuvlar asosida yetuk asarlar yaratish, ijodiy xodimlarning xorijiy davlatlarda malaka oshirishlarini ta'minlash, Teatr ijodkorlari uyushmasi qoshida xorijning yetakchi dramaturglari, rejissyor va aktyorlari ishtirokida seminar va uchrashuvlar tashkil etish lozim, deya ta'kidlaydi teatr xodimlari.

YANA BIR FIKR.

Yaqin orada bizning teatrlarimizga qancha xorijiy tomoshabin tashrif buyurgan? Deylik, alohida bir spektaklni ko'rish uchun yurtimizga maxsus keladigan chet el fuqarolari bormi?

Bu savollarga, afsuski, hozircha ijobiy javob topish qiyin.

Bir vaqtlar teatrlar radiolashirilgan bo'lib, tomosha boshqa mullat vakillariga ham tushunarli bo'lishi uchun spektakl tarjimasini tashkil etilgan. Balki, shu tajribani yana tiklash, ommalashtirish lozimdir?

TEATR TARG'IBOTINI KUCHAYTIRISHDA

ommaviy axborot vositalarining roli katta ekanini yuqorida ta'kidlandi. Shunday ekan, bugun ommaviy axborot vositalari, tele-radiokanallar, ijtimoiy tarmoqlarning teatr bilan aloqasi qay darajada, degan savol tug'iladi.

Keling, ushbu savolga markaziy teleradiokanallar, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar misolida javob izlab ko'raylik.

O'ZBEKISTON MILLIY

TELERADIODIOPANIYASI

ma'lumotiga ko'ra, ayni vaqtda markaziy tele va radiokanallarda bu yo'nalishda "Spektakl", "Milliy teatr", "Teatr mikrofon oldida", "Radiospektakl", "Radioteatr" singari dasturlar bor.

Birgina "Madaniyat va ma'rifat" telekanalining "Milliy teatr" dasturi orqali 2024-yilda 88 nomdagi spektakl 206 marta efirga uzatilgan.

"O'zbekiston" radiosidagi "Radioteatr" va "Mahalla" radiosidagi "Teatr mikrofon oldida" dasturlarining har biri yil davomida 200 tadan spektaklni efirga bergan.

Ayni paytda, O'zbekiston MTRK televideniye arxiv fondida 111 ta, radio arxiv fondida 200 ta, jami 311 ta spektakl mavjud bo'lib, ularning umumiy hajmi 344 soatni tashkil qiladi.

Lekin yana bir jihatni aytib o'tish zarur. 300 dan ziyod mazkur spektakllarning barchasi avval yozib olingan asarlar hisoblanadi.

2024-yilda markaziy tele va radiokanallar orqali faqat birgina asar – Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik musiqali teatrida qo'yilgan "Osmon hamma gapni eshitadi" nomli hajmi 1 soat-u 27 daqiqalik spektakl yozib olingan va efirga uzatilgan, xolos. Holbuki, poytaxtimizda 15 ga yaqin nomdor teatrlar faoliyat yuritadi va ular sahnalashtirayotgan asarlar orasida televideniye va radio uchun yozib olib qo'ysa arziydigan spektakllar talaygina. Bu borada ayni shu yo'nalishga ixtisoslashgan "Kinoteatr" telekanali alohida e'tibor qaratsa, maqsadga muvofiq bo'ladi, albatta.

Teatr asarlarini yozib olishda hududiy tele va radiokanallar faol ekanini kuzatish mumkin. Avvalo, hududiy kanallarda "Teleteatr", "Telespektakl", "Radioteatr", "Radioinsensirovka", "Teatr – hayot ko'zugi" singari doimiy dasturlar mavjudligi va ularda har yili yuzlab asarlar efirga uzatilayotganini aytib o'tish lozim. Masalan, birgina Namangan viloyati

mahalliy radiosi orqali 2024-yilda 350 nomdagi spektakl 360 marta efirga berilgan.

Umuman olganda, O'zbekiston MTRK tarkibidagi hududiy telekanallar arxiv fondida 450 ta, hududiy radiokanallar arxiv fondida 1 ming 250 ta, jami hududiy teleradiokanallarda 1 ming 700 ta spektakl mavjud.

2024-yilda hududiy kanallar orqali yana 23 ta spektakl yozib olingan. Bu borada Buxoro viloyatidagi musiqali drama va qo'g'irchoq teatrlaridan 6 ta, Jizzax viloyatidagi musiqali drama va qo'g'irchoq teatrlaridan 6 ta, Surxondaryo viloyatidagi teatrlardan 5 ta, Samarqand viloyati teatrlaridan 3 ta spektakl yozib olingani ibratli hol.

INTERNET TARMOG'I

bugun eng ommabop axborot tarqatish va targ'ibot vositasiga aylangani hech kimga sir emas. Xo'sh, mutasaddi tashkilot bo'lmish Madaniyat vazirligi va teatrlarimiz mana shu beminnat dasturdan qanchalik samarali foydalanyapti?

Masalan, bugun ommaga tanilgan, kuzatuvchilari ko'p bo'lgan blogerlarni teatrga doimiy taklif qilish, ularning ijtimoiy sahifalarida spektaklning eng ta'sirchan lavhalarini e'lon qilib, odamlarni qiziqtirish, shu sohaga ixtisoslashgan teatr blogerlari guruhini tuzish uchun salgina hafsala bo'lsa, yetarli.

Tahlillarga ko'ra, bugun deyarli barcha teatrlar ham ijtimoiy tarmoqlarda o'z kanallariga ega. Lekin ularni kuzatib boradiganlar qancha?

Bu borada O'zbek Milliy akademik drama teatri peshqadam – uning Telegram kanalidagi obunachilari soni 6 ming 639 nafarni tashkil etadi. Xuddi shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatri – 5 ming 19 nafar, Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik musiqali teatri 3 ming 30 nafar obunachiga ega.

Telegram kanalida eng kam obunachi Surxondaryo viloyati qo'g'irchoq teatri – bor-yo'g'i 60 nafar. Undan so'ng, Qo'qon shahar musiqali drama teatri – 79 nafar, Jizzax viloyati qo'g'irchoq teatri – 89, Andijon viloyati musiqali drama teatri – 125, Xorazm viloyati musiqali drama teatri – 133, Kattaqo'rg'on shahar drama teatri – 134, Namangan viloyati musiqali drama teatri – 162, O'zbekiston davlat satira teatri – 177 nafar obunachiga ega.

Bu raqamlar ijtimoiy tarmoq imkoniyatlaridan kim qanchalik samarali foydalanayotganini yaqqol namoyon etib turibdi.

SARLAVHAGA QAYTSAK,

Mahmudxo'ja Behbudiy hazratlari aytgan "Teatr – ibratxona" degan fikr bugungi zamonda ham dolzarb va ahamiyatlidir.

"Teyotr nimadur? – deb yozadi buyuk ma'rifatparvar. – Javobig'a teyotr ibratnamodur, teyotr va'zxonadur, teyotr ta'zir adabidir. Teyotr o'ynadurki, umumiy hol-larni anda mujassam va namoyon suratda ko'zliklar ko'rub, kar-quloqsizlar eshitib, asarlanur. Xulosa: teyotr va'z va tanbih etguvchi hamda zararli odat, urf va taomilni, qabih va zararini ayonon ko'rsatguvchidir. Hech kimni rioya qilmasdan to'g'ri so'ylaguvchi va ochiq haqiqatni bildirguvchidir... Taraqqiy qilmoqni eng birinchi sabab va boislardan biri teyotrlardur..."

Bir asr avval qo'yilgan bu talablarga javob berishi, ya'ni teatr chin ma'noda ibratxona bo'lishi uchun ijodkorlar tinimsiz izlanishi, xalq hayotini chuqur o'rganishi, saviyasiz tomoshabinning talablariga binoan quyi darajaga tushmasdan, aksincha, ularning ongi va ruhiyatini, hayotga qarashini tubdan o'zgartiradigan – yuksaltiradigan asarlar taqdim etishlari, jamiyat ham teatrga o'z oqimiga tashlab qo'ymasdan, uni qo'llab-quvvatlashi, har bir spektaklga munosabatini bildirib borishi lozim.

Nemis faylasufi Fridrix Nitsche yozadiki, "Rivoyatlar cho'qqilar bo'lsin: ularni tinglaydiganlar esa baland bo'lyi va yirik bo'lsinlar". Istagimiz: milliy teatrlarimiz hamisha yuksak cho'qqilar bo'lsin, ularning asarlarini tomosha qiladigan insonlar ham baland did va yetuk madaniyat sohiblari bo'lsinlar!

Ikrom BO'RIBOYEV

TAHRIRIYATDAN: Muhtaram o'quvchi, mana, milliy ma'naviyatimiz, farzandlarimiz taqdiri va kelajagi bilan bog'liq yana bir muhim mavzuda so'z yuritilgan maqola bilan tanishdingiz. Albatta, teatrlarimiz ham, uning yutuq va kamchiliklari ham o'zimizniki. Mamlakatimizda teatr san'ati rivoj topishini istagan har bir yurtodoshimiz, o'ylaymizki, bu masalaga befarq qaramaydi.

"Jadid" gazetasi sahifalari siz uchun ochiq. Biz ushbu mavzuda asosli fikr va jo'yali taklifaringizni kutib qolamiz.



HIKOYA

...Bunga dudlangan baliqning aloqasi yo'qdir – kecha kechqurun yesa bir tuyur yeb, ustidan yarim stakan qaynagan suv ichdi, xolos. Abdimo'min rosa manzirat qilsayam o'zini tiydi: imtihondan o'tib olaylik, keyin; balki pivo bilan qo'shib urarmiz. Buni eshitib ko'zlari chaqnaq ketgan hamxonasi lab-lunjini yig'ishtirmay qoldi; aftidan, pivo desa o'zini tomdan tashlaydiganlardan. Ammo shu bolaga tan berish kerak: ensangni qotirgancha, piyola-piyola choyni ho'rillatib ichgan ko'yi televizor qarshisida tongga qadar qimirlamay o'tirib chiqadi; ba'zan, ertalab badrafxonaga borishni unutib qo'ysa yo erinsa ham kun bo'yi o'sha tomonga qadam bosmay yuraveradi... Balki nonushta chog'i ichgan bir piyola choyi sababdir. Biroq tong saharda biror nima yemasa bo'lmasdi, axir shu bilan tushgacha og'ziga ushoq ham ololmaydi.

Xo'sh, institutga ikki avtobus almashib, bir soatda yetib keldi. Lekin qabul komissiyasidagilarning "Soat oldida shu yerda bo'lishlaring shart!" deb vahima qilganlari, uning bekatdan bu yog'iga "Kechikib qolmay-da ishqilib!" deya oyog'ini qo'lga olib chopganlari bekor ekan: aytilgan vaqtdan chorak soat o'tib ketgan bo'lishiga qaramasdan, hali odam kam edi.

Nihoyat soat yettidan boshlab abiturientlarni safga tiza boshlashdi. Nazir guruhi raqami yozilgan taxtachani ko'tarib olgan novcha qiz ortiga kelib turdi.

Bir soatlar ichida guruhdagilarning taxminan yarmidan ko'prog'i yig'ildi. Uzun bo'lyi, yengli ko'k ko'ylak kiyib, bo'yniga suratli beyjik osib olgan, ingichka mo'ylovli asabiy domla tinmay u guruhdan bu guruhga o'tar, bolalar sonini tekshirar, davomatdan ko'ngli to'lmayotgan bo'lsa kerakki nuqul uh tortib, norozi tarzda to'ng'illagani to'ng'illagan edi. Domla yonidan shoshib o'tayotgan mahal Nazir uning beyjigiga ko'z tashlab, katta harflarda yozilgan familiyani o'qishga ulgurdi: "Djabbarov". Demak, Jabborov.

To'qqizga yigirma daqiqacha qolganda guruhlarni ichkariga kiritish boshlandi. Ikki soatdan ortiqroq tik turib, oyoqlari, beli uvishib-og'rib ketgan bo'lsa-da, hali Nazirning kayfiyati ko'tarinki edi. Ilo, u qayta-qayta so'rab-surishtirib, aniq bilib olgan: hozir birinchi tekshiruvdan o'tib darvozadan kirishadi, keyin, ikkinchi tekshiruv va xonalarga – bu jarayonni boshdan o'tkazib bo'lgan talabalar "auditoriyalarga" deyshardi og'izlarini to'ldirishib – olib kirish oldidan tez anavi joyga o'tib kelishga izn berishadi.

Biroq... kambag'alni tuyening ustida ham it qopadi, deganlari rost shekilli: aynan Nazirning guruhidan kimdir kechikayotgan edi. Hamma kirib ketdi, faqat Jabborovni battar g'azablantirgan ko'yi shu guruhda bitta abiturient yetishmasdi.

Axiyri uzoq kutilgan abiturient chopib yetib keldi va quturib ketgan, urib yuburguday vajohatdagi domla qarshisida zo'r berib o'zini oqlashga tushdi: taksi, "probka"... Biroq Jabborov uning bahona-sabablarini eshitib ham o'tirmasdan, abiturientlarni shiddat bilan ichkariga boshladi.

Guruh a'zolari ikkinchi tekshiruvdan o'tib, bino kirish eshigiga yaqinlashishdi va ana shunda Nazir dahshat bilan damo-dam soatiga qaroyotgan Jabborov hammani birdaniga imtihon o'tadigan binoga olib kirib ketayotganini ko'rdi. Vaholanki... Bunga dudlangan baliqning aloqasi yo'qdir – kechqurun yesa bir tuyur yeb, ustidan yarim stakan qaynagan suv ichdi, xolos. Ertalabki bir piyola choy... Balki hayajonlanayotgani sababdir... Yo'q, bunga shamollagan chap buyragi aybdor. Mana, hozirdan achishib og'riyapti. O'sha, o'tgan qahraton qish akasi bilan dalaga yaxob suvi qo'yishga chiqqanida kuni bilan titrab-qaltirab yuraverib, sovuqqa oldirib ko'ygagan buyragi. Ichingga bir qoshiq suyuqlik tushsa bas, to'g'ridan to'g'ri tashqariga chiqarib yuborishga shoshadigan buyragi...

Xayriyat, badqovoq Jabborov birinchi qavat yo'lga boshida to'xtadi, yana bir bor soatiga qaradi, so'ng, yo'lakdan ko'z uzmay e'lon qildi:

– Besh minut kutamiz. Jim!

Holbuki, shusiz ham hamma nafasini ichiga yutgandi.

Besh daqiqa, uch yuz soniya... Ko'p narsaga ulgursa bo'ladi, ko'p narsaga... Nazir bu soniyalar o'zi uchun so'nggi imkoniyat ekanligini his qildi. Keyin, xonaga kirib ketishsa, uch soat tashqariga qo'yishmas ekan. Uch soat-a!..

Vahimadan dir-dir titray boshlagan Nazir bir qadam oldinga chiqdi.

– Domla...

Jabborov o'girildi.

– Nima deysan? – dedi u o'shqirib.

– Men... borib kelsam...

– A? Qayoqqa? Katta xolangning uyigami?

Abituriyentlar safida piqirlagan kulgi ovozlari eshitildi, ammo Nazir hozir bunga e'tibor beradigan ahvolda emasdi.

– Hojatxona...

Jabborov bujmayib qolgan abiturientga qarshisida g'addor xalq dushmani turganday adoqsiz g'azab va nafarat bilan, tiriklayin g'ajib tashlaguday o'qrayib qarab, baqirdi:

– A? Nima deb ming'irayapsan? Bunday o'zbekchalab gapir!

Aytgan so'zini tushunmadi deb o'yagan Nazir jon alpazda:

– Tualet... – dedi.

– Shu payt qistab qoldimi? – Jabborov g'ijini atrofga alangladi: – O'tib ketibmiz-ku... Bir kamim endi senlarning orqalarindan pampers ko'tarib yurishim qoluvdi. Bezrazmeridan...

Domlaga yoqmoq qasadimi kimlardir zo'r hikmat eshitganday oshkor xushomadli hi-hilashdi.

– Menga qara, bola! – o'dag'ayladi Jabborov. – Test "Es 332"-xonada bo'ladi. Uqdingmi?

Hech narsani uqmagani bo'lsa-da, Nazir shoshib bosh iring'adi.

Jabborov ta'kidladi:

– "S" emas, "es". Eslab qolgan bo'lsang mingga qo'yib beshinchi qavatga yugur! Ana zina. Keyin uchib uchinchi qavatga tush. "Es 332"-xonaga. Marsh!

Nazir uch hatlashda zinapoyaga yetib keldi va ikki-uch pillapoyani bir qilib sakragan ko'yi yuqoriga chopdi. Ikkinchi qavat... uchinchi... to'rtinchi... va nihoyat... Ammo bu nimasi? Bino to'rt qavatli edi. Yuqoriga olib chiqqan zina berk eshikka taqalib tugardi; yon tomondagi kir derazadan tom ko'rinib turibdi...

Nazir zina tutqichiga behol suyanib qoldi. Nahotki... nahotki domla adashgan bo'lsa...

Shu soniyada... Nazirning dimog'iga peshob ishi urilganday bo'ldi. Nahotki... Yigit shoshib atrofga alangladi. Hech kim ko'rinmadi. Ulguradi... Nazir qo'lini shimi zanjiriga yuborgan mahal birdan to'xtab qoldi. Yo'g'e... Qishloqda ming qistasa ham odamlarning uyi yonida tugul, tomorqasida ham bu ishni qilmagan banda shunday joyda... O'qiyman deb kelib... oliy ma'lumot olaman, madaniyatli odam bo'laman deb kelib... Domla adashgan, to'rtinching o'rniga beshinchi deb yuborgan...

Nazir pastga otili va to'rtinchi qavatning kimsasiz uzun yo'lga bo'ylab yo'rg'alab ketdi. Eshiklar... eshiklar... ammo biron tasda o'sha belgi yo'q...

Adoyi tamom bo'lgan Nazir orqaga chopdi va uchinchi qavatga tushdi-yu, yo'lakda hech kim ko'rinmagach, birinchi duch kelgan eshik raqamiga qaradi: "S-302". Unda "es"i qayerda ekan? O'ngdamikan, chapdamikan?

Nazir "es" harfli xonani qidirib ketdi. Aksiga olib, yigitni battar vahimaga solgan ko'yi hamma eshiklarda faqat "s" va yana "s" edi. Topolmasa nima qiladi? Yo shuning o'zi "es"mikan?.. Yo'g'e, axir, u o'qigan alifboda "s" harfi

taqdiri hal bo'layotganday uzoq, juda uzoq o'ylanib turgandan so'ng maxsus qudidagi konvertlardan birini shoshmasdan sug'urib oldi. Shundan keyingina test savollari yozilgan qog'ozlar tarqatildi.

Savollarni ochib ham ko'rimgan Nazir qo'l ko'tardi.

– Nima gap, yigitcha? – mehribonlik bilan so'radi oqsoch domla.

Xijolatdan yuzining lavlagisi chiqib ketgan Nazir o'rnidan turdi.

– Anavi... – u maqsadini tushuntirish uchun chiroyliroq, adabiyroq so'z qidirib kalovlandi: – men... shamollab kelsam degandim...

Ha, Nazir aynan shunday dedi. Zero, u o'tgan yili uylariga kelgan bir shaharlik mehmon shunday deganini o'z qulog'i bilan eshitgandi.

Domla Nazirga diqqat bilan tikildi:

– Ya'ni, nima demochisiz, marhamat qilib aniqroq aytasangiz.

Fikrini tushuntirmaganidan battar o'sal bo'lgan Nazir ochig'iga ko'chdi:


– Hojatxonaga borib kelsam...

Kimlardir yana piqirlab kulib yuborishdi, qizlardan biri yuzini chimchidi, "Voy o'lay..." deb qattiq shivirladi, shu qadar qattiq shivirladiki, uni butun auditoriya eshitdi.

Oqsoch domla o'rnidan turdi.

– Yigitcha! – dedi u aytayotgan so'zlari haqligiga zaracha ham shubha qoldirmaydigan o'ta jiddiy ohangda. – Men yetti yildan beri test imtihonlarida

ES



Suratni sun'iy intellekt chizgan.

"s" bilan belgilanardi-ku... Demak, yo haqiqatan "es" yo bo'lmasa "es"ni topishi kerak...

Axiyri hozirgina o'zi o'tgan yo'lak adog'idan pildirab kelayotgan domlaga ko'zi tushgan Nazir najot farishtasiga peshvoz chiqishga shoshganday shu tomonga yugurdi.

– Hoy bola, haliyam yuribsanmi kar qo'yday tentirab? – olisdanoq do'q urdi Jabborov. – Men senga "Es 332"-xonaga kel degandim-ku. "S" emas, "es"! "Es"! O'zbekchalab aytgandim-ku, galvars!

Yigit vaziyatni tushuntirish uchun og'iz juttadi, ammo ulgurmadi: domla uning biligidan mahkam changallab olib, dikonglatib sudrab ketdi.

– Baribir qishloqilgining borasan-da! – butun yo'lakni boshiga ko'tarib o'shqirdi Jabborov. – Sendaylarga o'qish ham hayf! Institut ham hayf!

Nazir to'zini o'nglab, bir og'iz gapirgunga qadar domla "S 332" deb yozilgan eshikni ochdi va yigitni ichkariga itarib kiritib yuborarkan:

– Shu gruppadan! – dedi va lol-karaxt ahvoldagi abiturient ortidan eshikni tarsillatib yopdi.

Doska yonida o'tirgan uch domladan biri Nazirdan familiyasini so'radi, so'ng, qog'oziga qarab tekshirib ko'rgach, uning joyini ko'rsatdi. Nazir mast odamday gandraklab borib o'tirdi.

Qolgan tartib bo'yicha kechdi. Qabariq ko'zoynakli oqsoch domla imtihon varaqlarini to'ldirish tartibini uzoq, erinmasdan tushuntirdi. Oyoqlarini bir-biriga mahkam qisib o'tirgan Nazir bu orada anavi joyga kamida to'rt marotaba borib-kelishga ulgurishini chamalardi. Yo haliyam ruxsat so'rab ko'rsamikan... Yo'g'e, o'zi kechikib kelgan bo'lsa...

Bir domlarning taklifi bilan hovlida guruh raqami yozilgan taxtachani ko'tarib turgan novcha qiz shoshilmasdan, toshbaqa qadam bilan doska yoniga chiqdi va baayni

qatnashaman. Bu yillar ichida sizga o'xshagan muttaha

o'yinchilarning, eh-he, qanchasini ko'rmadim, qanday mug'ombirliklariga guvoh bo'lmadim, aytaversam bir kitob bo'ladi. Lekin aytib qo'yay va bu gapimni qulog'ingizga qo'rg'oshinday quyib oling va sheriklaringizga ham yetkazing: sizga o'xshaganlar shoxida yurishsa, biz bargida yuramiz! Buni qanday eplagansizlar, bilmayman, ammo boshqa narsani aniq bilib turibman: sherigingiz hozir hojatxonada kutayapti. Siz borasiz, u hammasini yechib beradi, qaytib kelasiz, belovoyga ko'chirasiz, tamom-vassalom! Shu bilan talaba bo'ldim, deb o'ylaysiz-da. Adashasiz, yigitcha. Qattiq adashasiz! Toki yerdan men bor ekanman, bunday aldama-qaldamga aslo yo'l qo'yilmaydi! Aslo! Toki men bor ekanman, siz haqiqiy bilimi bor abiturientning o'rniga talaba bo'la olmasiz. Hech qachon! – O'z so'zlaridan o'zi mutaassir bo'lgan domla "qult" etib yutindi va titroq tovushda murojaatida davom etdi: – Shuning uchun, yigitcha,



MUALLIF HAQIDA:

Abdugayum Yo'ldoshev – 1962-yil 28-fevralda Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanida tug'ilgan. 1980–1985-yillari Toshkent politexnika institutida (hozirgi Texnika universiteti) o'qigan.

"Sunbulaning ilk shanbasi", "Timsohning ko'z yoshlari", "Katta o'yin", "Puanakare", "Hali vaqt bor..." qissa va hikoyalari to'plamlari hamda "Daryo" romani nashr etilgan.

"Kichkina odamlar", "Uqubat", "Iqtidor", "Vijdon", "Qadamlar", "Nigoh", "Burch va muhabbat", "Ustyurtga yo'l", "Tinchlik ortida", "Opa" badiiy filmlarining, "Hayot jilg'alari", "Sinov", "Odamlar orasida", "Ona daryo" seriallarining ssenariy muallifi.

1993-yildan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi. 1999-yili "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan. 2016-yili "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" unvoni berilgan.

Abdugayum YO'LDOSHEV

sheringim bilan qo'shib sharmanda bo'lmayin desangiz, jimgina o'tiring. Aks holda hozirning o'zida bayonnoma tuzib, sizni auditoriyadan haydb chiqarib yuboraman! Menga desa, tankangiz rektor bo'lmaydimi, farqi yo'q! Men imtihonda haqiqat va adolat tarafdoriman va to o'lgunimcha shu tamoyillarimga sodiq qolaman!

Qolgan ikki imtihon olguvchi keksa domlaga hayrat va havas bilan qarab, uning har bir gapiga chapak chalib yuborishdan o'zlarini arang tiyb turishardi.

– Hoziroq o'tiring, yigitcha va bevosita o'z vazifangizni bajarishga kirishing! – deya hayajonli chiqishini tugatdi domla. – Lekin bilib qo'ying, sizni alohida nazoratda tutaman, agar biron shpargalka yoki sotka-potka ishlatadigan bo'lsangiz, shu zahoti siz bilan xayrlashamiz.

O'z iltimosining bunaqangi talqinga uchrashi yetti uxlab tushiga kirmagan Nazir noiloj joyiga qaytib o'tirdi. Endi test savollariga tezroq javob qaytarishdan o'zga chora qolmagandi.

Qovug'i to'lib ketganidan keskinroq harakat qilishga ham cho'chiyotgan, bostirib kelayotgan vahimadan miyasida og'riq turgan Nazir ko'z oldida harflari chaplashib ketayotgan savollarga qarar, biroq ularning ma'no-mazmunini ilg'ab olishga qiynalardi... Baribir urinish kerak. O'zini chalg'itishi kerak. Ishlash kerak...

O', vaqt, bunchalar o'tishing qiyin sening...

Bukchayib qolgan Nazir tishini tishiga bosgancha bir amallab yuztacha savolning javobini belgilab chiqdi. Yo'q, endi ortiq chidab bo'lmaydi...

Nazir o'rnidan turdi, ko'zoynagini peshonasiga ko'tarib olgan o'ziga sinchkov qarab turgan oqsoch domlarning yoniga ehtiyotkorlik bilan qadam bosib bordi. Shuni topshirsa bas, ko'chaga... ko'chaga...

Javoblarni uzatayotgan mahal Nazir hatto gapirolmadi, og'zini ochsa nimadir sodir bo'ladigandek edi...

Kexsa domla qog'ozlarni oldi, ko'zoynagini tushirib, ularni diqqat bilan ko'zdan kechirdi.

– Hm-m... Chernovoylarsiz ishladingizmi?

"Qilt" etolmay turgan Nazir ko'zlarini yumib ochdi. Domla keyingi savolini berdi:

– Nega?

Ortiq chidab bo'lmasdi. Nazir yana bir soniyadan so'ng, ehtimol soniyaning mingdan bir bo'lgi ichida o'zini abdulabab sharmanday sharmisoz etadigan holat sodir bo'lishini his etdi. O'qish... o'qishlari ham boshidan qolsin! U jon-jahdi bilan tishlarini tishlariga bosdi, qo'llarini must qilib tuggancha birdan og'irlashib ketgan, nimasi bilandir suv lim to'la kuvini eslatayotgan o'ng oyog'ini arang ko'tarib eshik tomon bir qadam tashladi va shu holda, oyog'i o'z-o'zidan toyib, buti yirilgan odamday avval yerga o'tirib qoldi, so'ng, butun vujudida dahshatli og'riq his etgan ko'yi "gup" etib polga quladi...

Bu yil hali kuz adog'iga yetmasidan burun, noyabr oyining o'rtalaridayoq qilichini yalang'ochlab qish kirib keldi. Hamma yoqni oppoq qor bosgan shunday kunlarning birida o'rtog'im Fayzulla qishloqqa, tustovuy oviga taklif etib qoldi.

Ikkovlon qishloqdan ikki-uch chaqirim naridagi zovur bo'yida tizza bo'yi qor kechib ancha tustovuy otdik. Ovga qiziqib, ovuldan uzoqlab ketibmiz, bir payt qarasam, yayoq dala yonidagi terakzor ichiga qirilgan pastak paxsa uy mo'risidan tutun chiqyapti. Yaxshilab razm solum, yaqin-atrofga simyog'och yo'q, demak kulbaga tok kelmagan. Bundan to'rt-besh yil burun ham shu atrofga ovga chiqqandik, ammo bu uyni ko'rganimni eslolmadim. Qiziqib, so'radim:

– Bu Tom tog'aning kulbasi kimga tegishli?

Fayzulla beparvo ko'l siltadi:

– E, bu anavi bor-ku, qishlog'imizni sharmanda qilgan Nazir, o'shaniki.

Nimadir yodimga tushdi, hayron bo'ldim:

– Qanaqasiga sharmanda qiladi?

O'rtog'im yoqtirmayroq javob qaytardi:

– Odamning gapirgisiam kelmaydi. Xullas, olti-yetti yilcha bo'lib qoldiyov, imtihon payti qo'rqqanidan ishtonini ho'llab qo'ygani bola-da. O'shanda qancha gap-so'z bo'luvdi. Uyalganidan chiday olmay, oxiri uyidanam chiqib ketdi, shu yerda yashayapti. Terakzorga qorovul bo'lib olgan. Baribir birov qizini bermaganidan keyin... to'g'riyam qildi-da. Er yetib qolgan ukalarigayam joy kerak edi...

Esankirab qoldim:

– Men boshqacha eshitgandim-ku. Imtihon payti qovug'i yorilib ketib, qoni zaharlangan, do'xtirlar bir o'limdan asrab qolgan deyishgandi.

Fayzulla yelka sildi:

– Bilmasam. Menam eshitganimni aytyapman.

– Bir oldiga kirib chiqmaymizmi?

– E, qo'ysang-chi! Odam isi yoqmay qolgan unga. Atay yo'qlab borsang ham, esidan ayrilgan odamday tumtayib, yerdan ko'z uzmay o'tirgani o'tirgan. Aybi borda... – Shundan so'ng Fayzulla na achinib va na hattoki befarq ohangda, balki oshkor g'ijini, g'ashlik bilan qo'shib qo'ydi: – Essiz odam...

Birdan kayfiyatim tushib ketdi, ov zavqi ham tatimay qoldi. Fayzullaning "hoy-hoy"lashiga ham qaramasdan qishloqqa qaytdim-u, shu kunning o'zida shaharga jo'nab ketdim...



JADIDLIK MILLIY HARAKATI

va til-imlo masalasi



Boshlanishi 1-sahifada.

Abdurauf Muzaffar yana bir maqolasida til va imlo masalalarini tahlil qilib, inson so'zlashish uchun qanchalik tilga muhtojlik ehtiyoj sezsa, matbuot, adabiyot, imloga ham shunchalik ehtiyoj tuyishini, tili va imlosi isloh qilinmagan millatning matbuoti va adabiyotidan uning o'quvchilarining ruhi buzilishi, havasi va rag'batini susayib ketishini uqtirib o'tgan. U jadid maktablarda ham ona tili darslari to'g'ri tashkil qilinmaganligi, darsliklar talab darajasida emasligini tanqid qiladi: "Hatto biz bu kunda sal yangi ruh o'ralgan usuli jadida maktablarimizda o'qiydurgon va endigina qo'llariga qalam ushlab ona tilining xatini yozmaga' boshlag'an ma'sum birodarlarni ham imlo va til buzuligidan saqlay olmaduk".

Muallif necha yuz yillardan beri fors va arab kitoblari asosiga qurilgan maktab va madrasalarda ona tilining o'qitilmasligi uning qiymatini tushirib yuborganidan afsuslangan. Dindarslari arabcha kitoblardan emas, o'zbek tilida yozilgan kitoblardan o'qitilishi, bu esa islomni chuqur va keng anglash imkonini berishini qayd qilgan. Shuningdek, arab tilidan turkij tilga qo'shilib ketgan so'zlar salmog'i haqida gapirib, tilsizlik xavfi haqida qayg'urgan: "O'qug'anlarimiz til buzulmog'iga xizmat etdilar. Arabiy va forsiy qancha lug'at bilsalar, shuni bir fazilat sanab tillariga qabul etdilar. Ko'p narsalarga hech bir uzrisiz arabcha va forsiya ismlar qo'ydu. Shul tariqa tilimiz buzildi. Va iste'moldan mahrum bo'lib, ko'p so'zlarimiz unutildi. Turkiston bolasi uyalmadi. O'zining eng chiroylik so'zlarini tilidan quvlab chiqardi. Bo'sh qolg'on joylarga o'gay bolalar keturub o'tirdi. Endi hozirda biz tilsiz qolduk". Shuningdek, muallif turkiy tilning bir qismigina xalq orasida saqlanib qolgan, faqat shu bir qism tilidan foydalanilayotganini ta'kidlab, jadidlar milliy tilni asrab qolish va uni rivojlantirish yo'lida kirishganlarini qayd etgan. Diniy ulamolarga ham o'z ona tillarini buzmasdan, arab va fors tillidagi so'zlarni qo'shmasdan gapirishni tavsiya qilgan va o'z ona tilini sevisha da'vat qilgan: "Shul jihatlarni nazar diqqatga olib til masalasida juda ehtiyot ila harakat qilmak lozimdurki, yangidan o'gay so'zlar qabul qilish u yoqda tursin, hatto tilimizda o'runkarlig'ga turkiy so'z topiladigan hamma yot lug'atlarni bu kundand boshlab sekin-sekin quvlab chiqarmak, ona tillarini suyuvcchi va oning qiymatini anglaguvchi zotlarning vazifasidir".

"Sadoyi Turkiston" gazetasining 1914-yil 20-mart sonida "Muharrir Namangoniy" imzosi ostida Abdurauf Muzaffar maqolasiga munosabat tarzida yozilgan "Til masalasi" maqolasida ham milliy til, uni o'qitish, o'rgatish, o'zbek tilini o'rganishda maktablarning o'rni ko'rsatib

berilgan. Jadidlar o'zbek tilini turk tilining chig'atoy lahjasi deb ataganlar. Bunga Alisher Navoiyning turkiy til borasidagi qarashlari va asarlarini asos qilib olganlar. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy "Oyina" jurnalida nashr qilingan "Til masalasi" maqolasida "Turkistonning o'ziga tegishli shevasi turk tilining chig'atoy lahjasi bo'lib, "Navoiy" kitobi bu lahjaning go'yo muhim kitobidir" deb yozgan. Turkistonda madaniyat, saltanat va adabiyotning o'zgarib borishi natijasida xalq bu lahjaning boshqa-boshqa ekanini ta'kidlagan. Turkiston so'zi ham turkiy so'z bo'lmay, uni "Turk eli" yoki "Turk yeri", "Sadoyi Turkiston" gazetasini "Turk eli tovushi" deb atashni tavsiya qilgan. Muallif turkiy so'zlar lug'ati tayyorlashning muhim ekanligini ta'kidlab, o'shandagina turkiy tili arab va fors lug'atlaridan ajratib olish, boshqa tillar hujumidan asrash mumkin, deb hisoblaydi. Turkiy tili rus va usmonli tillari bilan taqqoslar ekan, bu millatlar bir necha yuz sanadan beri ingliz, fransuz tilini o'rganib kelayotgan bo'lsa-da, o'z tillariga begona til so'zlari o'zlashmagani, matbuoti, maktab darsliklari sof tillarida ekanini e'tirof etadi. Turkistondagi holatni esa quyidagicha izohlaydi: "Bu kun qozoqlarning buzilmagan ona tilisi bor. Ammo ona tilda maktab, madrasa, fanniy va ilmiy kitoblarda ta'sis etilmaydurlar. Chunki so'z yetishmaydur. Agarda alar taraqqiy etsa va madaniy bo'lsalar, hukman hozirgi tilni o'zgartirib bo'lar. Hamda ming yil avvalgi tilga qaytmoq qonuni tabiatga muxolifdur. Chunki moziyga ruju' mumkin yo'q. Begona til dan so'z olmoqdan qutulgan til yo'qdur... Xulosa fikrimiz shuki, yolg'uz turkcha so'ylamak va bozmoq abadan mumkin yo'q. Yaqindir imkon arabiy va forsiyini oz yozayluq. Barcha ilm-u fan istiloh va lug'atlariga turkchadan muqobil axtarib vaqtini zoye etmayluk. Taraqqiy etgan turkiy shevadagi ilmiy va fanniy kitoblarni anglamoqga sa'y va g'ayrat etayluk. Kelar zamon uchun hozirlanayluk, o'tgan zamon uchun emas".

1918-yili bolsheviklar o'zlarini Turkiston xalqiga go'yoki bosqichma-bosqich erkinliklar berayotgandek ko'rsatib, davlat idoralarida ish yuritishni o'z tillarida olib borish "imkonini berdilar". Milliy matbuot sahifalarida bu haqdagi huquqiy hujjatlar, xabarlar, majlislar bayoni chop etila boshladi. Ayniqsa, "Mehnatkashlar tovushi" gazetasida bu kabi xabarlar va ma'lumotlarni ko'proq ko'rish mumkin.

Bolsheviklar o'zlarini Rossiya mustamlakalariga go'yoki ozodlik berishga intilayotgan hukumat sifatida ko'rsatishga harakat qilganlar va o'tmishdoshlarini qoralash yo'lidan borganlar. Buning uchun ularga eng yaxshi vosita matbuot bo'lib,

eski hukumatning ruslashtirish siyosatini qoralashni asosiy vazifa qilib belgilab olganlar. Milliy matbuotda ushbu targ'ibot ta'siri ostida chor Rossiyasi davridagi til borasidagi siyosatini tanqid qilish yetakchilik qilganini ko'rish mumkin. Jumladan, Samarqand jadidlarining yirik namoyandalari Hoji Muin "Til masalasi" maqolasida: "Eski hukumat zamonida biz turkistonlilar hukumatning rasmiy idora va maktablari nari tursin, o'z maktablarimizda ham ona tilimizda ilm va fan o'qumoqqa komili ixtiyori emas edik. Chunki ul mustabid hukumatning chin muddaosi bizlarni va ham g'ayri ruslarni ruslashturmoq bo'lg'onlig'i sababli bizlarni har jihatdan qisarg'a, ezarga tirishib tura edi", deb yozadi. Ammo Hoji Muin va uning safdoshlari imperiya davrida ochgan jadid maktablarda darslar rus tilida emas, milliy tilda olib borilganini ko'rish mumkin.

Shu bilan birga, muallif maqolaning keyingi qismlarida bolsheviklarning til borasidagi kirdikorlarini ham tanqid ostiga olgan. Jumladan, davlat idoralari-da o'zbek tilida ish yuritish belgilangan bo'lsa-da, amalda rus tilida davom etayotganini ochiq-laydi: "Hozirda Samarqand musulmon shahar dumaxonasi bilan musulmon sho'rosi o'z taraflaridan musulmon idoralari-ga yuborilaturg'on rasmiy qog'ozlarini faqat ruscha yozib yubormakdadir, bular, bu ish o'z tilimiz haqida bir jinoyatdir. Shuning uchun muhtaram sho'ro va baladiya idorasidan o'tinamizkim, bu masalaga ahamiyat berib, bu to'g'rida tezroq tadbir ko'rag'a kirishaylar".

Hoji Muin til masalasidagi ikkinchi muammo milliy mutaxassislarning o'z tiliga e'tiborsizligi, unga rus tilidagi so'zlarni qo'shib yozishlarida deb biladi: "Hozirgi mirzolarimiz bo'lsalar, o'zlar turk o'g'li turk bo'lib turkiy tilning qoidalari va yoki imloni bilmaydirlarkim, bularning yoz-g'an va yozaturg'on narsalari umum va ko'cha tilidan ozgina tafovutlidir. Munga ilova, bu so'ng yillarda (boxusus Rusiya inqilobidan keyin) bizning mirzolar orasida yomon bir odat joriy bo'la boshladiki, bular turkiy tilimizga ruscha so'zlar qo'shib yozaturg'on bo'ldilar".

Muallif ona tilimizni mukammal o'rgatuvchi ixtisoslashgan ta'lim muassasalari ochilmaganini uchinchi muammo sifatida qayd etadi. Muammolarning yechimi sifatida til kurslarini ochish, unda birinchi navbatda davlat idoralari xodimlari o'qishlari lozimligi, ikkinchi navbatda aholiga o'zbek va rus tillari, ularni tarjima qilish usullari o'rgatilishi kerakligini ko'rsatadi. "Mehnatkashlar tovushi" gazetasining 1918-yil 3-sentyabr sonida "Davlat lisoni haqida dekret" chop qilingan. Unga ko'ra, qonunlarining o'zbek tilida nashr qilinishi, davlat idoralari-ga o'zbek va rus tilini mukammal biluvchi kishilar olinishi majburiyati va hokozolar

belgilangan. Dekretdagi "Ushbu sana 1-maydan Turkiston o'lkasi a'fonumiyali o'ika e'lon qilinuv munosabatiyla o'lkada yashovchi xalqlar bilan iliq munosabat saqlov uchun Turkiston jumhuriyatining hukumati, rus tili bilan barobar mahalliy xalqning tili bo'lg'an turk tilining hukumat tili deb tasdiq qiling'anlig'ini hammaga e'lon qiladir" "mehribonchiligi" esa faqat qog'ozda bo'lib, aslida hech qanday o'zgarish bo'lg'an emas.

Gazetaning shu sonida "Turkiston jumhuriyati doirasida hukumat tili kirituv haqida qonun" ham chop qilingan bo'lib, uning birinchi bandida turk tili (o'zbek tili nazarda tutilmoqda) Turkistonning qonuniy tili deb e'lon qilingan: "Turk tili, rus tili bilan barobar, mahalliy xalqning o'ika hokimiyat bilan bo'lg'an rasmiy munosabatlar hukumat tili hisoblanadir. Shu ondanoq o'ikaning zakonodatiniy tili hisoblanadir". Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, qonunda garchi o'zbek tilining huquqiy maqomi belgilangan bo'lsa-da, amalda unga rioya etilgan emas.

Turkiston musulmonlar byurosi matbuot organi – "Ishtirokiyun" gazetasida ham Turkistondagi til masalasi bilan bog'liq xabarlar, kengash majlisi bayonlari, maqolalar berib borilgan. Jumladan, gazetaning 1918-yil 4-dekabr sonida Milliy ishlar komissari Hoji Safo Jo'raboyev tomonidan 1918-yil 1-dekabrda o'tkazilgan "davlat tili haqidagi kengashi" tafsilotlari o'rin olgan. Kengashda lug'at nashr qilish, Turkiston adabiyotini yo'lga qo'yish, alifbo kitoblarini isloh qilish, imlo masalasi ko'rib chiqilgan. Ammo Turkistonda na qonun, na dekret va na ushbu yig'ilish bayonida ko'zda tutilgan bandlar ijrosi ta'minlanmagan.

1918-yili til masalasida sodir bo'layotgan holatlar Turkiston jadidlarini faqat maqolalar yozish, munosabat bildirishlari bilan cheklanib qolmadi. Ular til va imloni isloh qilish borasida amaliy harakatlarini boshladilar. 1918-yili Buxoro jadidlik harakatining yirik namoyandasi Abdurauf Fitrat tashabbusi bilan "Chig'atoy gurungi" tashkiloti tuzildi. "Ishtirokiyun" gazetasida "Toshkentda "Yosh buxoroliklar"ning faol a'zolaridan – Fitrat afandi ila o'zbek yoshlari tarafidan "Chig'atoy gurungi" nomli yangi bir jamiyat tuzilgan. Milliy ishlar komissariyati tarafidan tasdiq etilib, ishga kirishgan. Biz vaqtli ham o'rinni ta'sis etilgan bu jamiyatni samimiy qalbdan tabrik qilamiz..." deb xabar berilgan.

1919–1921-yillari faoliyat ko'rsatgan ushbu madaniy-ma'rifiy va ilmiy-adabiy tuzilma turkiy xalqlar madaniyati, san'ati, adabiyoti, tarixi, tili va imlosi kabi sohalarini jiddiy o'rganishga kirishgan. Uning "Til va imlo to'dasi", "Adabiyot to'dasi", "San'at va teatr to'dasi" va boshqa bo'limlari bo'lg'an. "Til va imlo to'dasi"ga dastlab Cho'lp'on, so'ngra Elbek rahbarlik qilgan. "Chig'atoy gurungi" faoliyatida Abdurauf Fitratdan tashqari Qayum Ramazon, Cho'lp'on, Elbek, G'ozli Olim Yunusov, Mannon Uyg'ur, Ashurali Zohiriy, Shokirjon Rahimiy, Shorasul Zunnun, Akmal Ikromov



DILNOZA JAMOLOVA,
tarix fanlari doktori

kabilar muhim o'rin tutganlar. Ular adabiy til, uning nazariy-amaliy masalalari bilan shug'ullanganlar.

Chig'atoy gurungining "Imlo" to'dasi tomonidan "Ishtirokiyun" gazetasining 1919-yil 24-may sonida "Imlo masalasi" maqolasi chop qilingan bo'lib, unda yozuvni isloh qilish masalasi muhim ekanligi qayd qilingan. "Imlo" to'dasining til va imloni isloh qilish borasidagi harakatlari qarshi chiquvchilar ham bo'lib, eski imlodagi qolish kerakligini uqtirganlar. Ammo to'da a'zolari bu sohada islohotlarni keng targ'ib etishga harakat qilganlar va uning qabul qilinishiga ishonganlar. Yangi imlochilar boshida turgan Abdurauf Fitrat milliy tilimiz, uning tanazzulining boshlanishi tarixi va uning bugungi holatini matbuot sahifalarida maqolalari orqali ko'rsatib bergan. U "Tilimiz" maqolasida o'zbek tilining o'g'riqli nuqtalarini ochib beradi: "Turk tili dunyoning eng baxtsiz tili. Turkchanning baxtsizlig'i arab bosqini bilan boshlanmishdir. Arablar bosdiqlari o'lkaga yolg'uz hukumatlarini emas, dinlarini, yo'sunlarinida tanitg'an edilar".

Abdurauf Fitrat faqat arab tili emas, fors tili ham turkiy tilga juda katta zarar keltirganini ta'kidlab, turkiy tili boy til, deb e'tirof etadi va uni oldingi holatiga qaytarish kerakligini uqtirgan: "Dunyoning eng boy tili bo'lg'an turkchamiz yolg'uz arabcha yumroqlari bilan emas, forsiycha tepkilari bilan daxi ezilmishdir. Ko'zlarimizni to'rt ochib qarayliq: dunyoning eng buyuk hakimi bo'lg'an "Ibn Sino" turkdir. Ikkinchi "Arastu" atalg'an Farobiy turkdir. Arab tilini manguilik turguzub ketgan Javhariy turkdir. "Vahidat vujud", degan, forsiycha tepkilari bilan bo'lg'an Jaloliddin Rumi turkdir. Forsiy adabiyotining payg'ambarlaridan bo'lg'an "Nizomiy"da daxi turkdir.

Muallif turkiy tilning baxtsizligini qayta-qayta takrorlab, uni arab va fors tilidan qutqarib qolsa bo'ladimi, savolini qo'yadi. Turkiy tili arab va fors tilidan qutulolmaydi, deb aytganlarga qarata, bu tilidagi so'zlarning tarjimai turkiyda borligi, bu so'zlarni bilish uchun tili yaxshi bilish kerakligini uqtirgan.

Milliy matbuot sahifalarida bir muddat til va imloga oid maqolalar, xabarlar chop qilinishi to'xtab qolgan. Bunga, birinchidan, ocharchilikning avj olishi, ikkinchidan, bosqinchi hukumatning milliy qo'rboshilar qurolli harakatini bostirish uchun olib borgan harakatlari, uchinchidan, Buxoro amirligi va Xiva xonligi tugatilishi, Turkistonning to'liq sovetlashtirilishi, to'rtinchidan, bolsheviklarning qog'ozda boshqa, amalda boshqa til siyosati, beshinchidan, kommunistik mafkuraning kundand-kun kuchayishi sabab bo'lishi mumkin.

"O'zbekiston tarixi jurnali",
2024-yil, 2-sonidan

XOTIRA AZIZ



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Sodiqjon Boltaboyev – 1900-yili Qo'qon shahrida dehqon oilasida tug'ilgan. Millati o'zbek. 18 yoshigacha otasi bilan birga ishlagan. 1915-yili o'zbek maktabida 4-sinfni bitirgan, 18 yoshidan Qo'qon temir yo'l deposida ishchi, 1922-yilgacha kotelshevik bo'lg'an. 1923–1926-yillari temir yo'l deposida ishlagan. 1922-yil 1-apreldan partiya qo'zg'atuvchisi. 1926–1928-yillari Qo'qon uyezd kasaba uyushmasi raisi, 1928–1929-yillari okrug ijroiya komiteti raisi, 1929-yil mayda O'zbekiston SSR Sovetlarining V qurultoyida O'zSSR Xalq komissarlar soveti raisi o'rinbosari, 1929–1931-yillari Toshkentda O'zbekiston kompartiyasi Markaziy komiteti Markaziy kontrol komissiyasi raisi, 1931–1934-yillari O'zkompartiya Markaziy komiteti kontrol komissiyasi kotibi, 1934-yilda Toshkent shahar partiya komiteti sekretari vazifalarida xizmat qilgan.

1936–1937-yillari O'zbekiston kompartiyasi Markaziy komitetining uchinchi kotibi lavozimida faoliyat ko'rsatgan. Sodiqjon Boltaboyev NKVD xodimlari tomonidan 1937-yil 10-avgustda hibsga olingan. U 1930-yilda O'zbekiston kommunistik partiyasi Markaziy komitetining sobiq kotibi Akmal Ikromov tomonidan "Milliy istiqlol" tashkiloti ishiga jalb qilinganlikda, shuningdek, Narpay, Qo'qon, Bag'dod, Kaganovich, Kuybishev, Farg'onada ommaviy qo'zg'olonchi tuzilmalar tashkil etganlikda ayblangan. U O'zSSR Jinoyat kodeksining 57-, 58-, 63-, 64- va 67-moddalarida ko'zda tutilgan jinoyatlarni sodir etganlikda ayblanib, SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 4-oktyabrda Toshkentdagi yig'ilishida otuvga hukm etilgan. Keyinchalik u 1956-yil 29-iyunda reabilitatsiya qilingan.

Amin Abdullayev – 1896-yili Andijonning Asaka shahrida tug'ilgan. Sobiq VKP(b) a'zosi. Diniy bilim beruvchi o'qituvchining o'g'li. Boku shahridagi musulmonlar yig'ilishining ishtirokchisi. 1937-yil 31-dekabrda O'zSSR JKning 66-, 67-moddalari bilan ayblanib, Leninsk shahri, Vodxoz ko'chasi 11-uydan qamoqqa olingan.

"Milliy ittihad"chi hamda Asakadagi "Haqiqat" guruhi a'zosi, yoshlar orasida aksilinqilobiy ishlarni amalga oshirganlikda, yangi a'zolarni jalb qilish bilan shug'ullanganlikda, hukumatga qarshi mag'lubiyatchilik mish-mishini tarqatganlikda ayblangan. 1938-yil 13-fevral kuni NKVD qoshidagi "Uchlik" tomonidan 7 safdoshi bilan birga otuvga hukm qilingan va shu kunning o'zida 75-akt asosida o'tib tashlangan.

Ahmadjon Ibrohimov – 1902-yili Qo'qon shahrida hunarmand oilada tug'ilgan, millati o'zbek. Otasi to'quvchi bo'lg'an. Ahmadjon Qo'qon shahridagi 1-bosqichli musulmon maktabida o'qigan. 1928-yil mart oyida Andijon shahar partiya komiteti tomonidan partiya safiga qabul qilingan. 1924–1926-yillari VLKSM a'zosi bo'lg'an.

SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 5-oktyabrda yig'ilishida Ahmadjon Ibrohimov aksilinqilobiy harakatda ayblanib, otuvga hukm qilingan.

Sobir Mirzajonov – 1903-yili Namangan shahrida tug'ilgan. Inqilobgacha oddiy ishchi, hibsga olingunga qadar O'zbekiston KP(b) Qo'qon shahar partiya komiteti kotibi sifatida faoliyat ko'rsatgan. 1937-yil 27-sentyabrda NKVD xodimlari tomonidan hibsga olingan. U "Milliy istiqlol" tashkilotiga a'zo bo'lg'anlikda va mazkur tashkilotda O'zbekistonni Sovet Ittifoqidan kuch bilan ajratib olib, uning o'rinda mustaqil burjua-demokratik davlat barpo etishni maqsad qilganlikda, tashkilotga yangi a'zolarni jalb etganlikda ayblangan.

Tergov hujjatlarida Sobir Mirzajonov tomonidan qo'zg'olonchi yacheykalarni tashkil etishda asosiy e'tibor, ayniqsa, sovetlarga qarshi unsur, elementlar ko'proq to'plangan va o'tmishda bosmachilar harakati ta'siriga tushgan hududlarga qaratilganligi qayd etilgan. U O'zSSR Jinoyat kodeksining 58-, 63-, 64- va 67-moddalari bilan ayblanib, 1938-yil 4-oktyabrda otuvga hukm qilingan. Jazo o'sha kuniyiq ijro etilgan. 1957-yil 1-avgustda Sobir Mirzajonov reabilitatsiya qilingan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor,
Nigoraxon AKBAROVA,
tadqiqotchi

(Davomi kelgusi sonida).



MULOHAZA

...Universitetda tahsil olayotgan jiyanimning savol aralash so'ragani ajablantirdi: "Bu... nomlari abadiylashtirilganlarning hammasi ham adolatli odamlar emas ekan-ku!"

Gap kim haqida ketayotgani bilan qiziqdim. U qo'l telefonidagi bir lavhani ko'rsatdi. Sarlavhasiga ko'z tashladim: "Oq oltin" qullari. Paxta mafiyasi". Lavhaga ikki tarixiy shaxs surati ilova qilingan – Sharof Rashidov va Ahmadjon Odilov. Qiziqib, besh-olti daqiqa kuzatdim va hafsalam pir bo'ldi. Jiyanimga asl haqiqat qayerda ekanligi bo'yicha biroz ma'ruza o'qishimga to'g'ri keldi.

Ijtimoiy tarmoqlarni "o'rgimchak uyasi"ga o'xshatishadi. Tabiatning mitti jonivori – o'rgimchak qorin qayg'usida oshqozonida ishlab chiqaradigan suyuqlikni o'ta nozik iplarga aylantirib, undan turli va chalkash handasaviy to'rlar to'qiydi hamda bir burchagida nogoh to'rga tushadigan o'ljani poylab yotadi.

O'ljayam uzoq kuttirmaydi. Majoziy holatni bugun turli ijtimoiy tarmoqlarda yoyinlanayotgan xabar, lavha, tok-shou, blog va shunga o'xshash axboriy chiqishlarda ko'ramiz. Bu o'rinda "o'rgimchak" roliga biror kimsa. Uning "o'lja"si esa ongi shakllanmagan, dunyoqarashi "To'ytepadan nariga o'tmagan" har kim.

Internet foydalanuvchilarini eng ko'p o'ziga og'diradigan, (manipulyatsiya) qiladigan "YouTube" hisoblanadi. Turlicha siyosiy dunyoqarash, buzg'unchilik, fahsh, diniy ekstremizm mazmunidagi jonli yoyinlar bilan to'lib-toshgan "YouTube"ga bir nazar tashlasangiz, misli changalozorga kirib qolganek bo'lasiz. Xorijiy tillarga "tishi o'tmaydigan" tomoshabinlar qatlami odatda ruscha va o'zbekcha kontentlarga kirishadi. Aynan ushbu kontentlardagi ayrim lavhalar kishini sergak torttiradi. Bunday soxtagarchilik, yolg'onlarni tarqatishdan maqsad ne? Ularning ortida kimlar – qaysi mafkuraviy kuchlar turibdi?

Jiyanim shuurini buzishga uringan yuqoridagi lavha aynan "YouTube"da tarqalgan (Shu o'rinda mazkur ijtimoiy tarmoqda juda ko'plab foydali kontentlar, so'nggi vaqtlarda o'zbek segmentida tarix, adabiyot, ijtimoiy hayot borasida mazmunli, to'laqonli ko'rsatuvlar borligini ham inkor etib bo'lmaydi).

"YouTube"ga kirib, "izlash" xizmatiga ikki yoki uchta so'zdan iborat so'rovnomani yozing. Misol uchun, "Paxta ishi" yoki "O'zbeklar ishi" deb so'rov bering... Bir zumda shu mazmundagi o'nlab ko'rsatuvlar chiqib keladi. O'tgan asrning saksoninchi yillari ikkinchi yarmida xalqimiz boshidan kechirgan so'nggi qatag'on – "paxta ishi" bo'yicha bir-birini inkor qiluvchi, aksar tuhmatlardan iborat ko'rsatuvlar keragidan ortiq – "o'rgimchak to'ri"da ilashib...

yo'q, mustahkam o'rinish olib, soddadil odamlarni kutib yotibdi. O'z vaqtida dalillar, sud hujjatlari bilan isbotlangan haqiqatlarga bu ko'rsatuvlarda boshqacha to'n'kiydirilgan – sobiq imperiyaning salkam uch yuz million aholisini arzon kiyim-kechak (belanchakdagi lattadan tortib kafaniga qadar) ta'minlagan zahmatkash paxtakor xalqimizga "o'g'ri", "qo'shib yozuvchi" tamg'alari

Aslida, paxta atalmish tabiat mo'jizasi xalqimiz egini butlash asnosida sovetlar o'tkazgan siyosat o'laroq "zulm vositasi"ga asoslangandi. "Dehqon yoqanda, cho'pon o'lganda tinchiydi" deyilmish otaso'zimiz o'sha davrda o'z mazmunini yo'qotgan, dehqon qora qishda ham tinim bilmas, aholi molxonalaridan tosh qotgan chorva go'ngini ko'chirib, dala boshiga

shuurimizga o'rnamashdi. Ammo...

Haliyam o'sha davrdagi shaxslarni qoralash, ular orqali jafokash o'zbek dehqoniga qora chaplash kimga kerak bo'lib qoldi? O'tmish kulteplarini qayta va qayta titkilashdan kimga naf?

"YouTube" har qanday soxtagarchiliklar, yolg'onlarni yamlamay yutishga usta tarmoq. Unda uya qurgan ("o'rgimchak to'ri" to'qigan)

Haqiqatan ham hozirgi qish faslida ayrim hududlarda gaz yetishmovchiligi sabab vaqtincha yuzaga kelgan muammolarni pesh qilib, undan o'z maqsadlari yo'lida foydalanish uchun "YouTube"da yolg'onlarni sizdirayotgan kimsalar anchagina. Afsuslanarlisi, ularning aksari o'zimizning qorako'zlar. Birlari alamzada, birlari qachondir yurtini tashlab qochgan, yana birlari dardan qochgan tomoshaga o'ch qavmdan. Har bir muammolan foydalanib, odamlar ko'ngliga g'ulg'ula solish, ularni boshqa yo'l-larga da'vat qilish asosiy maqsadlariga aylangan.

...Yaqinda ijtimoiy tarmoqlardagi taqiqlangan kanallar ro'yxati e'lon qilindi. Diniy ekstremistik, yolg'on ma'lumotlar tarqatuvchi, g'azotga chorlovchi kanallar qaysilar ekanligini bilish, ularga kirishdan (ayniqsa, hali ongi to'la shakllanmagan yoshlarni) qaytarish har bita o'tonaning burchi. Shu ma'noda, bunday ogohlantirishlar muntazam berib borilayotgani juda asqatadi. Aynan shunday saytlarga kirganlik uchun qonunlarimizda jazo belgilangan. Ammo...

Yuqorida aytganimiz – kechagi kundagi tariximizni soxtalastirayotgan, undagi ayrim shaxslarni yomonotliqqa chiqarish, bugungi kunimizga qora bo'yoq chaplashni maqsad qilgan ijtimoiy tarmoqlardagi saytlar, bloglarga kirishni ham qonun tartibga solish vaqti kelmadimi? Shu yo'sindagi tarmoqlarning yoshlar ongiga yetkazayotgan zarari diniy ekstremistik tarmoqlardan kam emas-ku!

To'g'ri, yurtimizda so'z erkinligi yangi qabul qilingan Konstitutsiyamizda kafolatlangan. Buni millionlab foydalanuvchilarning ijtimoiy tarmoqlarga emin-erkin kirishlari, o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarida ko'ryapmiz. Ayrim davlatlarga o'xshab bizda qaysidir ijtimoiy tarmoq bloklanmagani ham buning isboti. Qolaversa, yurtimizda "jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi ustun, ya'ni har qanday yolg'on-u bo'htonlarga qarshi bosilqilik bilan aniq tarixiy dalillar, kun voqealari tafsilotlari orqali kurashish.

"YouTube"dagi bo'htonona ko'rsatuvlar ta'siriga tushgan bandalar chandon ko'pligi yetmaganidek, davralarda ushbu yolg'on xabar, ma'lumotni dasturxon qilish hollari urchimoqda. Chor atrofa bo'layotgan voqealardan ko'z yumib, kimlardir, qaylardandir tarqatayotgan yolg'on xabarlar shu sabab bolalab borayotir. Bu holatni ruhiyatshunoslar "inson ongini manipulyatsiya qilish" deyishadi. Dehqonchasiga aytasak, ongi zaharlash, bo'htonlar bilan oziqlantirish. Agarda ijtimoiy tarmoqlarga eng ko'p kiradigan qatlam aynan yoshlar ekanligini inobatga olsak, bu yaxshilikka emas. Negaki, ahli donish aytmish: "Yoshlar miyasi – urug' qadalmagan unumdor yer, yoshligida nima ekilsa, o'sha ko'karadi" matali bizni hamisha sergak torttirishi kerak. Shunday emasmi?!

Ro'zimboy HASAN

YOLG'ONNI YAMLAMAY YUTIB,

"SEMIRAYOTGAN"



yopishtirilgan. Afsuslanarlisi, bu ko'rsatuv va lavhalarining aksari so'nggi yillarda tayyorlangan va "YouTube"ga joylashtirilgan. Paxta yetishtirishning azobi (majburiy mehnat, zaharli kimyoviy moddalar tufayli sariq xastaligi ommaviy tarqalgani) haqida tasavvurga ega bo'lmagan yoshlar bu ko'rsatuvlar ta'sirida o'z dunyoqarashlarini o'zgartirmaydi, ota-bobolari haqida boshqacha fikrga borishmaydi, deb kim kafolat bera oladi?!

"YouTube"da o'sha og'ir yillarda respublikada bosh bo'lgan, aynan sovet zug'umi tufayli umrini Quyi Amudaryo mintaqasida paxta dalasida yakunlagan Sharof Rashidov haqidagi ko'rsatuvlar sonini sanashda adashasiz. Bugun xotirasi abadiylashtirilgan, tuman, universitet va ko'chalarga nomi qo'yilgan, haykallari ko'rkam joylarda o'rnatilgan shaxsga tirikligida va vafotidan keyin otilgan toshlar – bo'htonlar kimlardir tomonidan tizimli va to'xtovsiz davom qildirilmoqda. Qaram zamonlarda millat boshida turgan oyidini yomonotliq qilishdan bugun kim manfaatdor? Bu yolg'onlar kimlarga va nima maqsadlarda xizmat qilayotir?

O'z davrida tuhmatlarga uchragan, umrining ko'p yilini qamoqxonalarda o'tkazgan vodiylik mashhur rais Ahmadjon Odilov haqida ham shunga o'xshash bir qator ko'rsatuvlar joylanganki, ular haqida ham shu fikrni aytish mumkin.


Yuqorida eslatilgan ko'rsatuv go'yo sobiq sovet davlatida "eng kuchli mafiya" – "paxta mafiyasi" bo'lgan degan g'oya ustomonlik bilan tomoshabin ongiga ta'sir qilishga mo'ljallab tayyorlangan. Bir qator yolg'on fakt va raqamlar keltirilganki, bular tinglovchini ishontirishga xizmat qiladigan darajadan ham ortiqcha.

chiqaradi. Bu jarayonga ko'proq xotin-qizlar va hatto maktab bolalari ham jalb qilinardi. Keyin chigit ekish jarayoni kamida bir oy davom etar, buning og'ir mehnati yana bechora dehqon yelkasiga tushardi. Bu yog'i unib chiqqan niholni yagana qilish, keyin to'rt-besh bora begona o'tlardan tozalash kuzakka ulanardi. U yog'iga esa "paxta fronti" ochilib, toki qora qishgacha davom qilar, beli qotmagan maktab bolalari terimga birinchi navbatda jalb qilinir, qisqasi yig'im-terimdan biror jon chetda qolmasdi. Qishloq ahli taqdiriga yozilgan og'ir yumushga terim davrida shahar ahli ham qo'shildirdi.

...Jahon bozorida barcha zamonlarda yuqori baholangan paxtani yetishtirgan dehqonga arzimagan haq – terilgan bir kilogramm paxta uchun besh tiyin to'lanardi. Paxta xo'jaliklarining aksari ming tonnalab paxta yetishtirgan holda yil yakunida qarzdor bo'lib chiqardi.

Shu davrda yurt boshida turgan insonlarga ham oson tutmaslik kerak! Ular buyruq beruvchi yuqori tashkilot bilan oddiy xalq orasidagi rishta edilarki, bu vazifa gardaniga tushgan insonlar ikki tomondan tortilish (bosim) ostida yashashgan va insoniy qiyofasini saqlab qolishga urinishgan. Bunga erishganlari ko'p. Judayam ko'p! Ularni bugun hurmat bilan eslayapmiz.

Mustaqillik tufayli bu kunlar ortda qoldi – saboq maktabi bo'lib



“Agar gavhar koni talabida bo'lsang, konsan.
Agar luqmai non havasida bo'lsang, nonsan.
Agar bu hikmat sirrini bilsang, bilimdonsan.
Har narsai ki uni sen izlading, ana o'shasan.”

Jaloliddin RUMIY

TILBILIM

O'zbek tilida tovushlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatishi ko'p kuzatiladi. Ayrim hollarda yonma-yon kelgan tovushlar moslashadi. "Yigitcha" so'zini "yigichcha", "uch so'mni" "usso'm" deymiz.



"VAZN" I O'ZGARGAN "VAZMIN"

Ayrim so'zlarda esa ketma-ket kelgan, joylashuvi talaffuzimizga noqulay bo'lgan tovushlarni darrov o'zimizga moslashtiramiz: "qulf" (aslida qufl), "teskari" (aslida tersaki), "kift" (aslida kift), "yomg'ir" (aslida yog'mur) va hokazo... "Vazmin" so'zi peshonasiga ham shunday taqdir "yoziqan". Aslan "og'irlik", "o'lchov" kabi ma'nolarni anglatadigan "vazn" so'zi "vazmin" so'zining asosi. Ammo davrlar o'tishi bilan "n" harfi "m"ga joy bo'shatib bergan – aslida "vaznin" bo'lishi kerak. Ammo shakl o'zgarishi mazmunga ta'sir qilmagan. Asl ma'nodagi og'irlik o'z semasi (ma'no-mazmuni)ni yo'qotmagan holda, bugungi kunda ko'chma ma'noda og'ir-bosiq, o'ylov bilan ish tutadigan, salobatli degan mazmuni ifodalaydi.

Husan MAQSUD

DIQQAT, TANLOV!

EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI VAZIRLIGI, O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

2025-yil – Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili munosabati bilan ijodkorlar o'rtasida "Onajonim – tabiat" mavzusida ijodiy ishlar tanlovini e'lon qiladi.

Tanlovga Yangi O'zbekistonda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni qayta tiklash va inson faoliyatining tabiatga salbiy ta'sirining oldini olish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilashni ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, erkin va farovon yurtda barkamol avlodni tarbiyalash, xalqimizda ona Vatanni, uning ne'matlarini asrab-avaylash tuyg'usini kuchaytirish, ajdodlarimizdan meros havo, yer va yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosini asrashdek milliy qadriyatlarimizni, ijtimoiy hayotdagi yutuqlarimizning barchasi ona tabiat bilan chambarchas bog'liq ekanligini yosh avlod qalbiga va ongiga singdirish kabi ezgu g'oyalar hayotiy misollar, teran fikr-mulohazalar bilan tarannum etilgan,

shuningdek, soha fidoyilarining hayoti va yutuqlari, obodlik, farovonlik yo'lidagi intilishlarini yoritib beruvchi she'rlar, hikoyalar, dramatik hamda badiiy publitsistik asarlar qabul qilinadi.

Ijodiy ishlar 2025-yil 20-mayga qadar qabul qilinadi.

Hakamlar hay'ati tomonidan g'olib deb topilgan ijodkorlar 5-iyun – Butunjahon atrof-muhit kuni arafasida "Eng yaxshi she'riy asar", "Eng yaxshi hikoya", "Eng yaxshi dramatik asar" va "Eng yaxshi badiiy publitsistik asar" nominatsiyalari bo'yicha quyidagi tartibda pul mukofotlari, diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanadi:

bitta birinchi o'rin – bazaviy hisoblash miqdoriging 25 baravari miqdorida;

bitta ikkinchi o'rin – bazaviy hisoblash miqdoriging 15 baravari miqdorida;

bitta uchinchi o'rin – bazaviy hisoblash miqdoriging 5 baravari miqdorida.

Tanlovga taqdim etilgan asarlar sara-lanib, kitob holda chop etiladi.

Tanlovga taqdim etiladigan asarlarning asl yoki elektron nusxasi muallifning telefon raqami va pasport nusxasi bilan birga quyidagi manzilga yuborilishi lozim:

Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor shoh ko'chasi, Adiblar xiyoboni, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi.

E-mail: badiiy_adabiyot@mail.ru.
Murojaat uchun telefon: (71) 231-83-67.

Jadid

Muassislar:

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

"SHAHIDLAR XOTIRASI" JAMOAT FONDI

Bosh muharrir: Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir: Shahriyor Ibrohimov

Sahifalovchilar: Erkin Yodgorov, Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 7 567
Lotin yozuvidagi adadi – 12 564
Media kuzatuvchilar – 19 271
Buyurtma: G – 140.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko'rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxonasi: (71) 203-24-20
Devonxonasi: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turok ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:00
Sotuvda narxi erkin.

